



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI

MAKTABGA TAYYORLOV
GURUHLARI UCHUN

SAVODXONLIKKA O'RGATISH

TARBIYACHI KITOBI



O'ynaymiz

O'qiymiz

Yozamiz

6-7
YOSH

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA`LIM VAZIRLIGI**

**O`ynaymiz
o`qiymiz
yozamiz**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka
o`rgatish

Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyachilari
va ota-onalar uchun metodik qo`llanma

Toshkent -2018

Mazkur metodik qo'llanma Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mx-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyulndagi 4-son hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

"Tarbiyachi kitobi"da savodxonlikka o'rgatish metodikasi va mashg'ulotlar ishlanmalari batafsil yoritib berildi.

Ushbu qo'llanma maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tayyorlov guruhida "Savodxonlikka o'rgatish" mashg'ulotlarini olib boruvchi tarbiyachilarga mo'ljalangan.

Metodik qo'llanmadan maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari, pedagogika oliy o'quv yurtlari va kollej talabalari ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Mualliflar: M.R.Is'hoqova, M.Z. Fayzullaeva, J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M. Sultonova

Taqrizchilar:

X. Rizayeva, Toshkent shahar Yunusobod tumani 366-MTM mudiri

S.Majidova, Toshkent shahar Uchtepa tumani 550-MTM metodisti

M.K. Buxorova, Toshkent shahar Sergeli tumani 87-MTM mudiri

M.E. Rustamova, maktabgachata'limmuassasalarirahbarvamutaxassislariniqaytata yyorlashvaularningmalakasinioshirishinstituti katta o'qituvchisi

Mazkur metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutiilmiy kengashining 2018-yil 30-avgustdagli **2-sonli** qarori bilan tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi.

Savodxonlikka o`rgatish metodikasi

O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarining asosiy sohalaridan biri “Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari” bo`lib, u quyidagi kichik sohalardan iborat: nutq va til, o`qish malakalari, qo`l barmoqlari mayda motorikasi. Ushbu kichik sohalarning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun tayyorlov guruhlarida o`quv yili davomida jami 72 ta mashg`ulot rejallashtirilgan, shundan 36 tasi bolalarning og`zaki nutqini o`stirish, 36 ta mashg`ulot savodxonlikka o`rgatishga mo`ljallangan bo`lib, ularning davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etadi.

Maktabgacha ta`lim tizimida savodxonlikka o`rgatish metodikasi o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, u elementar o`qish va yozish ko`nikmalarini shakllantirishdan boshlanadi.

O`qish va yozish — nutq faoliyatining turi. Savodxonlikka o`rgatish davrida o`qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish **o`qish va yozish ko`nikmasi** deyiladi. O`qish va yozish ko`nikmasi takomillashtirila borib, **malakaga** aylantiriladi. O`qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya`ni og`zaki hikoya qilish, o`zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog` liq holda shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qish va yozish malakalarini shakllantirish bir-biri bilan bog`langan holda uzviy va uzlusiz ravishda olib boriladi.

O`zbek tili yozushi **tovush yozuvi, ya`ni fonematik yozuvdir**. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus **grafik shakl (harf)** olingan. **O`qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi**. Bu o`qish va yozish faoliyatida bola uchun qiyinchilik tug`dirgandek tuyulsa-da, aslida o`qish va yozish jarayonini soddallashtiradi, chunki tilimizdagи tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko`p emas. O`qish va yozishni o`lzashtirish uchun tovush va harflarning o`zaro bog`liqligiga oid qoidalarni o`zlashtirish kifoya.

Savodxonlikka o`rgatish metodikasida o`zbek tili tovushlar va harflar tizimining o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O`zbek tilining tovush tizimi va yozuvi

O`zbek tili yozushi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida”gi qonunga muvofiq o`zbek tili yozushi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

Tarbiyachi savodxonlikka o`rgatish jarayonida o`zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olib mashg`ulotlarni rejallashtirishi lozim. Buning uchun

o`zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

1. Savodxonlikka o`rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish **unlilardan** boshlanadi. **Hozirgi o`zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o'.**

E harfi so`z va bo`g`in boshida qo`llanadi (egin, echki, echkemar), undoshdan keyin o`rtal keng lablanmagan unli tarzida o`qiladi (kel, tez).

O harfi o`zbekcha, umumturkiy so`zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi, rus tilidan o`zlashgan so`zlarda urg`usiz bo`g`inda a tarzida (botanika), o`tovushi kabi (tonna), qisqa i tarzida (traktor) kabi talaffuz qilinadi.

A tovushi bahor, savol kabi so`zlarda o kabi, muomala, munosabat kabi so`zlarda i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi.

U tovushi qovun,sovun kabi so`zlarda i tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham u yoziladi.

I tovushi bilan, sira kabi so`zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O`zbek tilida 24 ta **undosh tovush** bor. **Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi:** shulardan 3 tasi harf birikmasi, 20 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jumal), j (joja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g, sh, ch, ng. Undoshlarni o`rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Savodxonlikka o`rgatish davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya`ni ovozdor tovushlar bilan boslash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo`g`n va so`z taikibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o`rgatiladi. Harf birikmalarini o`rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning savodxonlikka o`rgatish davrining oxirgi bosqichida o`rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, birinchi portlovchi j tovushini o`rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko`nikmalar hosil qilinadi, keyin esa sirg`aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o`rgatiladi. So`ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach o`rgatiladi. Tarbiyalanuvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o`qish va yozishga ko`nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o`qiladigan holatga to`xtalmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi (b-p, d-t, v-f, g-k, z-s kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi.

X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo`yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (‘) unli tovushdan so`ng kelsa, uni cho`zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so`ng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo`llashga doir ko`nikmalar shakllantiriladi.

Savodxonlikka o`rgatish jarayonida **harflarning bosh va kichik bosma shakli** va ularning ishlatilish o`rni o`rgatiladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o`qishga o`rgatish bo`g`in asosida olib boriladi. Bo`g`inlab o`qishga o`rgatish uchun so`zni bo`g`inga bo`lish, bo`g`in chegarasini aniqlashni o`rgatish muhim sanaladi. Savodxonlikka o`rgatish davrida tarbiyalanuvchilar so`zlarni bo`g`inlarga to`g`ri ajrata oladi, bo`g`inli kartochkalar yordamida bo`g`inlardan so`zlar tuzadi.

O`qish va yozish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari

O`qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tartiblash muhim omil hisoblanadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qishga o`rgatishda tarbiyachilar quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim:

1. Bola o`qish paytida bitta harfni ko`radi, uni bilish uchun rasmlarni ko`z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq tarbiyachi aytishga yo`1 qo`ymaydi, undan bo`g`inni aytishni talab qiladi. Tarbiyalanuvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo`shib bo`g`in, bo`g`indan so`z hosil qilguncha, o`qish jarayoni sustlashadi.
2. Ko`pincha bola o`qiyotgan qatorni yo`qotib qo`yadi, harfni, bo`g`inni, so`zni qayta o`qishiga to`g`ri keladi. Tarbiyalanuvchining diqqati kengaygan sari bo`g`in va so`zni butunligicha idrok eta boshlaydi.
3. O`qishni endi o`rganayotgan bola o`qiyotgan matn mazmunini o`zlashtirmaydi, chunki u so`zni qanday o`qishga ko`p kuch beradi. Tarbiyachining savollari, ko`rgazmali, multimedia materiallariga didaktik o`yinlar ularning ongli o`qishlarini ta’minlaydi.
4. Tajribasiz kitobxon bola so`zni birinchi bo`g`iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o`qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so`z bo`g`inlab o`qitiladi, so`zni bo`g`in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O`qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o`stirishga katta e'tibor berish kerak. Savodxonlikka o`rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o`stirishga, ya`ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o`rgatish, bo`g`in yoki so`zdan o`sha tovushni ajrata olish ko`nikmasini o`stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savodxonlikka o`rgatish davrida tarbiyalanuvchilar eshitish idrokini o`stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar, ta'limiy o`yinlar, qiziqarli topshiriqlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida bolalar ruchka (qalam)ni to`g`ri ushlashni, daftarni to`g`ri qo`yishni, harfni yozishda daftar chiziqlari, ular bo`ylab qo`lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni mo`ljallangan katakga bosma harfda yozishi lozim. Bu jarayon bolalarni aqlan va jismonan charchatadi, ayniqla, ularning barmoq va yelka muskullari toliqadi. Shuning uchun ham mashg`ulotda **jismoniy daqiqalar** o`tkazilishi ahamiyatlidir.

Yozuv jarayonida bola ruchka(qalam)ni qog`oz ustida sekin, ishonchszilik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to`xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba`zan chiziqdan chiqib ketadi, noto`g`rilarini bo`yab, to`g`rileydi. Bunda u tarbiyachiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo`li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi.

Yozuv jarayoni tarbiyalanuvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli tarbiyachi yozuv jarayoniga bolaning xatti-harakatlariga sabrqanoat bilan katta e'tibor qaratishi juda muhim.

Savodxonlikka o`rgatishda analiz-sintez metodi

Savodxonlikka o`rgatish **analiz-sintez tovush metodiga** asosan olib boriladi. So`z bo`g`inga bo`linadi, bo`g`indan kerakli o`rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o`rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o`qish jarayoni o`zlashtiriladi. Bunda o`zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi.

Analiz-sintez (tovush-tarkib) tovush metodiga Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analiz-sintez tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savodxonlikka o`rgatishda analiz-sintez tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko`ra ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo`lib, nutqiy mashqlar orqali aqliy rivojlanishni hamda o`qishning ongli bo`lishini ta'minlaydi.

2. Analiz-sintez tovush metodida **psixolingvistik nuqtai nazaridan** quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- a) savodxonlikka o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;
- b) savodxonlikka o`rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;
- d) o`qish birligi sifatida bo`g`in olinadi, bo`g`in ustida ishlashga e'tibor qaratiladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi **tamoyillari** quyidagilar:

1. Savodxonlikka o`rgatish jarayonida bolaga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiyligi rivojlanishi hamda o`qish va yozishga tayyorligiga bog`liq).
2. Grammatika, so`z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.
3. Tovush va harfni o`qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini hisobga olish.

Savodxonlikkao`rgatish jarayonini tashkil etish metodikasi

**Analiz-sintez metodida savodxonlikkao`rgatish jarayoni
2 bosqichda davom etadi.**

Birinchi bosqichda

– tarbiyalanuvchilarga quyidagilar

- og`zaki va yozma nutq,
- gap,
- so`z,
- bo`g`in,
- tovushlar,
- nutqning gaplardan, gaplarning so`zlardan tuzilishi,
- so`zlarning bo`g`inlarga bo`linishi,
- bo`g`inlarning tovushlardan tashkil topishi **haqida ma'lumot beriladi.**
- tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi **o`rgatiladi** hamda ulardan **amaliy foydalana bilish ko`nikmalari hosil qilinadi.**

Shuningdek, bu bosqichda bolalarning bog`lanishli nutqi ustida ishlanadi. Bunda tarbiyachi bolalarga nutq haqida tushuncha beradi, nutqning kichikroq

bo`lagi gap bilan tanishtiradi. Gapning so`zlardan tuzilishi, gapning birinchi so`zi bosh harf bilan yozilishi, oxirida nuqta, so`roq, undov belgilari qo`yilishi ko`rsatmali didaktik materiallar orqali tushuntiriladi.

Har bir narsaning nomi-bu so`z ekani, so`z bo`g`inlarga bo`linishi, bo`g`in va so`z tovushlardan tuzilishi, tovushni talaffuz qilish, eshitish mumkinligi, tovushlar unli va undosh bo`lishi, ularning yozuvdagi ifodasi harf bilan ifodalanishi aytildi.

Savodxonlikka o`rgatishning bu bosqichida **analiz quyidagi metodik yondasuv** bo`yicha olib boriladi:

1. Nutq tarkibidan gapni ajratish.
2. Gapdan so`zlarni ajratish va so`zlarning bosh shaklini topish.
3. So`z ichidagi yangi tovushni aniqlash va uning bo`g`indagi o`rnini belgilash.
4. Bo`g`in tarkibidagi yangi tovushlarning talaffuzini orfoepik me'yorda o`rganish.
5. Bosma harfda o`rgatilgan yangi tovushning yozma shaklini tanishtirish.

D harfi misolida analiz metodining o`tkazilishiga namuna.

Tarbiyachi sujetli rasm asosida bolalar bilan kichik matn tuzib oladi.

Kuz keldi. Dalada sabzavotlar pishib yetildi. Dehqonlar hosilni yeg`ib olmoqdalar.

Tuzilgan matndan o`rganilayotgan tovush ishtirok etgan so`zli gap ajratib olinadi.

Dalada sabzavotlar pishib yetildi.

Gapdan **daladaso`zi**, bu so`zdan esa d tovushi qatnashgan bo`g`in **-da** va bo`g`indan **d**tovushi ajratilib olinadi hamda uning bosma shakli (harf) yozilishi ko`rsatiladi.

Analiz mashqlari

1. Nutq (gap)dan so`zni ajratish; so`zni aniq talaffuz qilish; bo`g`inlarga bo`lish va bo`g`inlarni aniq talaffuz qilish, so`zdan, bo`g`indan tovushni kuchli talaffuz qilib o`qish, muayyan tovushni ajratgan holda so`zni bo`g`inlab o`qish (aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, ki-yyyik, iiish).
2. Mashg`ulotda o`rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:
 - 1) so`zdan tovushni cho`zib talaffuz qilish bilan ajratish: aaa-na, looo-la, booo-la;
 - 2) undosh tovushni yopiq bo`g`indan ajratish: Usss-mon, O-limmm, A-minnn.
 - 3) sirg`aluvchi undoshni ochiq bo`g`indan ajratish: sssa-na, tu- yyya, zzi-rak;
 - 4) bo`g`in hosil qilgan bir unlini ajratish: o-na, u-num, o`-tin, a-na, e-tik, i-pak;
 - 5) o`rganiladigan tovushni so`z boshida kelgan so`zlardan ajratish (so`zni tarbiyachi aytadi, birinchi tovushni esa bolalar aytadi): non, tok, olma,...;

- 6) rasm nomini ifodalovchi so`zni aytish: tarbiyachi nokning rasmini ko`rsatib, noo deydi, bolalar k tovushini qo'shib aytadilar: nok.
3. So`zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo`g`inlarni sanash: Olma — ol-ma; o-l-m-a
- to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo`g`in.
4. So`zni bo`g`inga bo`lish qarsak orqali amalga oshiriladi. Nechra qarsak chalinsa, so`z shuncha bo`g`indan iborat bo`ladi.
5. So`zni bo`g`inga bo`lish uchun kaft iyak tagiga qo`yilib so`z talaffuz qilinadi. Nеча мarta iyak kaftga tegsa, demak so`z shuncha bo`g`indan iborat bo`ladi.

Bu usullardan barcha mashg`ulotlar davomida foydalanish mimkin.

Savod o`rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o`qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko`proq o`qish malakasini shakllantiradi.

Sintez quyidagi metodik yondashuv bo`yicha olib boriladi:

1. Kesma harflardan foydalanib, bo`g`in hosil qilish.
2. Hosil qilingan bo`g`inlardan so`z tuzish.
3. Berilgan so`zlardan gap tuzish.
4. Kichik gaplardan matn yaratish.

D harfi misolida sintez metodining o`tkazilishiga namuna.

Tarbiyachi o`rganilayotgan **D** tovushi talaffuzini orfoepik me'yorda o`rgatadi va uning bosma harf shakli bilan tanishtiradi. D harfiga tanish bo`lgan unli harflarni qo'shib turli bo`g`inlar hosil qilinadi. **Da, do, du, di, ad, od, id, ud.**

Hosil qilingan bironta bo`g`in tanlab olinadi va unga boshqa bo`g`inni qo'shish orqali so`z tuziladi. **Da – la**

Tuzilgan so`z ishtirok etgan gap tuziladi. **Dalada ish qizg`in.**

Tuzilgan gap mazmuniga mos yana kichik gaplar tuzilib matn hosil qilinadi.

Kuz keldi. Dalada ish qizg`in. Dehqonlar hosilni yig`ib olmoqdalar.

Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so`zni yoki bo`g`inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so`z yoki bo`g`inni o`qish.
2. O`rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...) bo`g`in jadvalini tuzish; bo`g`in jadvalini kitobdan yoki matndan o`qish; kesma harflardan bo`g`in jadvalini tuzish.
3. Bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki ona-ana, ukki-ikki, osh-ish kabi bir unli harf bilan farqlanadigan so`zlarni o`qish (bunday so`zlarni bolalarning o`zlari topib o`qishlari mumkin).

4. So`zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo`shib, yangi so`z hosil qilib o`qish: ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; o`roq-so`roq; ol- xol, sol; sava-savat; son- oson; ayiq-qayiq; olti-oltin.
5. Tovushni yoki bo`g`inni tushirib qoldirib, yangi so`z hosil qilish va o`qish: anor-nor, gulnor-gul, yelkan-yelka, bog`la-bola.
6. Bo`g`in qo`shib yangi so`z hosil qilish va o`qish: bog`-bog`bon, gul-gulzor, paxta-paxtakor.

Sintez metodidagi bunday ish turlari tovush ustida ishlashni harf ustida ishslash bilan birga qo`shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo`lib, mashg`ulot jarayonini bolalar uchun zavqli, qiziqarli eng muhim o`quv materialini bolalar tomonidan tez va puxta o`zlashtirilishiga asos bo`ladi. Umuman, savodxonlikka o`rgatish jarayonida analiz-sintez usullari tizimi bolaning faol fikrlashini, bilish mustaqilligini ta'minlaydi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o`stiradi.

Savodxonlikka o`rgatish mashg`ulotlarida o`quv-didaktik vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo`g`inlar va harf terish (taxtali, magnitli, interfaol)doska, abak (harakat qiladigan lentali ko`rgazma), videoproyektor (ekrani bilan), multimedia, taqdimot (Power Point), didaktik materiallar(rasm, kartochka, plakat, pazllar) kabi ko`rsatma vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishslash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun kompyuter video va audio materiallarni qo`llash tavsiya etiladi.

Gap ustida ishslash metodikasi

Fikr almashish, muloqat gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o`qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to`g`ri yozishga oid amaliy bilimlar savodxonlikka o`rgatish mashg`ulotlarida shakllantiriladi.

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida nutq, uning og`zaki va yozma shaklda bo`lishi, nutqning gaplardan hosil bo`lishi va gap haqida amaliy tushuncha syujetli rasmlar yordamida hosil qilinadi. Buning uchun tarbiyachi rasm yuzasidan 3-4 so`zli savollar tuzib keladi.

Masalan:

1. Rasmda nima tasvirlangan ?
2. Aziz dalada nima qilyapti?
3. Kimlar bog`da olma teryapti ?

Bolalarning javob gaplari tuzilishi doskada quyidagicha tasvirlab beriladi:





Bolalar javoblaridan nima hosil bo`lgani (gap, matn) aniqlanadi. So`ng tarbiyachidoskada matn chizmasini ko`rsatadi.

Tarbiyachi birinchi chizma 1-berilgan savol(gap)ning javob gapi ekanini aytadi. So`ngra bolalarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig`i beriladi. Ularga “Chizmaning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo`yilgan?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ular “3 ta savol - 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob 3 ta gapning chizmasi chizilgan” deyishadi. Javoblar umumlashtirilib, gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko`rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgi - nuqta qo`yilgani tushuntiriladi. Bolalarning javoblari tartiblashtirilib va to`ldirilib, quyidagicha xulosa chiqariladi: Demak, nutqimiz gaplardan tuzilar ekan. Nutqda 2, 3, 4 ta va undan ham ko`p gap bo`ladi. Gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga tinish belgi - nuqta qo`yiladi.

Umuman, savodxonlikka o`rgatish jarayonida gap, gapning so`zlardan tuzilishi, gapda so`zlarning alohida-alohida yozilishi, gapning oxiriga mazmuniga qarab nuqta, so`roq, undov belgisi qo`yilishi, gapning birinchi so`zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushuncha beriladi.

Gap yuzasidan quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Tarbiyachi yoki bolalardan biri aytgan gapni tarbiyalanuvchilarning doskada chizma shaklida tasvirlashi va gapda nechta so`z borligini aytadi (bunda gap rasm asosida tuziladi).
2. Berilgan syujetli rasm asosida tuzilgan hikoyadan o`rganilayotgan tovush-harf qatnasngan so`z bor gap ajratib olinib, uning chizmasi doskada chizdiriladi. Shundan so`ng o`sha so`z bo`g`in- tovush jihatdan tahlil qilinadi.
4. Rasm asosida tuzilgan hikoyadan istalgan gapning chizmasini doskada ifodalash. Bunda bolalarning gapni bir butun holda xotirasida saqlagani, gapga xos xususiyatlarni ongli o`zlashtirgani aniqlanadi. Bu jarayonda bir necha bolaga bir nechta gap chizmasi chizdirilishi mumkin.
5. Matndan berilgan chizmaga mos gapni ajratib olish va izohlab berish.
6. Matndagi har bir gapning chizmasini chizdirish. Matn dastlab 2-3, so`ng 3-4gapli bo`lishi maqsadga muvofiq. Tuzilgan matnni tarbiyachi qayta aytib turadi, bolalar bittadan doskadauning chizmasini ifodalaydilar. Matnning chizmasi shu tariqa doskada o`z ifodasini topadi. Misol:

Bu bizning oila.Oilamiz besh kishidan iborat.Bizning oilamiz inoq.



7.Sinkveyn mashqi

Sinkveyn bu besh qatordan iborat she'rdir.

Uning yozilishida ma'lum qoidalar bor.

Birinchi qatori bitta kalit so`zdan iborat bo`ladi. (asosan ot turkumiga oid)

Bu so`z she'rning mazmunini belgilaydi. Bu so`z biron bir predmet nomi, shaxs nomi yoki biron qahramon bo`lishi mumkin.

Ikkinci qatori ikki so`zdan iborat. Unda birinchi qatordagi so`zni belgisini ifodalovchi so`zlar bo`lishi kerak.(sifat so`z turkumiga oid so`zlar)

Uchinchi qatori esa uch so`zdan iborat bo`lib, berilgan so`zlar harakatini anglatishi lozim (fe'l so`z turkumiga oid so`zlar).

To`rtinchi qatorto`rt so`zdan iborat bo`lib, she'r mavzusiga munosabat bildiriladi (gap yoki ibora).

Beshinchi qator bitta so`zdan iborat bo`lib, u birinchi qatordagi so`zni sinonimi yoki shu so`zni anglatuvchi boshqa so`z beriladi.

Masalan;

Bahor

Chiroyli, ko`m-ko`k

Isiydi, yashnaydi, gullaydi

Men bahorni juda yoqtiraman.

Ko`klam

Quyon

Momiq, oppoq

Sakraydi, qo`rqadi,kemiradi

U o`rmonda yashovchi hayvon

Uzunquloq

8. Kichik guruhlarda ishslash.Tarbiyalanuvchilar 4 kishidan iborat bo`lgan kichik guruhlarda quyidagi vazifani birgalikda bajaradilar: berilgan so`zli kartochkalardan gap tuzing. Masalan: Qizil olma yedim. Guruhlarga vazifani bajarish uchun vaqt beriladi. Guruh ishini yakunlagach tuzgan gapini o`qib taqdim qilib beradi.

9. “Telegram” mashqi

Tarbiyachi kichik guruhlar tashkil etadi. Doskaga gapning bitta so`zi tushurilib yoziladi. Har bir kichik guruh stolida so`zli kartochkalar bo`ladi. Tushirilib qoldirilgan so`zni stoldagi kartochkalardan mosini tanlab doskaga joylashtirish kerak bo`ladi. Bu ish bir necha variantda takrorlanishi mumkin.

So`z ustida ishslash

So`z ustida ishslash jarayonda tarbiyachi rasmli kartochka asosida yoki narsalarning o`zi yordamida har bir aytilayotgan nom so`z ekanligi tushuntiradi,

„so`z“ tushunchasi shakllantiriladi. Bu borada quyidagicha ishlar omalga oshiriladi:

1. So`zning to`g`ri, adabiy-orfoepik talaffuzi va o`qilishini o`rgatish.
2. So`z ma`nolarini tushuntirish.
3. Tarbiyalanuvchilar nutqiga yangi so`zlarni kiritib borish, ya`ni lug`atini boyitish.
4. So`zlarni uslubiy jihatdan to`g`ri qo`llashga o`rgatish.
5. Berilgan so`zni imlo jihatdan to`g`ri yozishga o`rgatish.

So`z ustida ishslash jarayonida quyidagicha og`zaki mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Bir xil qo`shimchali so`zlardan topish. Masalan: ishla, tuzla, sozla; gulzor, mevazor, paxtazor va boshqa.
2. Ohangdosh so`zlar topish. Misol: ol, bol, tol, mol, sol; bosh, tosh, qosh, osh; va boshqa.
3. Ma`nodosh so`zlar topish. Bunda „Bu so`zni boshqa qaysi so`z bilan almashtirish mumkin?“ deb so`raladi. Masalan: vatan, yurt, el, mamlakat, diyor; chiroyli, go`zal, xushro`y, maftunkor va boshqa.
4. Shakldosh so`zlar topish. Bunda 2 ta gap berilib ulardagi bir xil yozilgan so`zni topish aytildi. So`z topilgach, uning ma`nolari gaplar vositasida tushuntirib beriladi. Misol: Yozda dam oldik. Xatni qalam bilan yoz.

Qo`y uy hayvoni. Olgan narsangni joyiga qo`y.

5. Qarama-qarshi ma`noli so`zlar topish. Misol: yaxshi-yomon, baland-past, oq-qora, odobli-odobsiz, katta-kichik va boshqa.
6. Ko`p ma`noli so`zlar yordamida birikmalar tuzish: odamningko`zi — uzukning ko`zi, taxtaning ko`zi... Bunda tarbiyachi boshlab beradi va qatortarbiyalanuvchilar tomonidan davom ettiriladi. Bu mashqni rasmi kartochkalarni ko`rsatish orqali ham o`tkazish mumkin.
7. So`z ustida ishslash jarayonida kesma harf va kesma bo`g`inlar yordamida yozma mashqlar tashkil etiladi.
8. O`rganilayotgan harfdan bir bo`g`inli so`zlarni kesma harflardan tuzish va o`qish: nok, nay, osh, oy, ip, tom, do`s, qand, baxt va boshqa.
9. Berilgan chizma asosida so`zlar tuzish va ulani o`qib, ma`nosini izohlash. Misol: Bu chizma asosida qush-cha, do`p-pi, ruch-ka kabi so`zlar tuziladi. 

O`yin tarzida olib boriladigan bu kabi ish turlari tarbiyalanuvchilarning lug`atini boyitish bilan birga, o`qishga qiziqish uyg`otadi, imloviy sezgirlikni oshiradi va so`zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

10. “Ha, yo`q” mashqi

Tarbiyachi bitta narsaning rasmini bolalarga teskari qilib ushlab turadi va rasmida tasvirlangan narsaning nima ekanligini savollar berish orqali aniqlanishini aytadi.

Bolalar savollariga to`g`ri javob topilmagunga qadar tarbiyachi faqat “Ha”yoki “Yo‘q”, “Ham ha, ham yo‘q” so‘zlari bilan javob beradi. Narsa nomi topilgach rasm bolalarga ko`rsatiladi.

Bolalarni savodxonlikka o`rgatish ommaviy maktabgacha ta’lim muassasalarining tayyorlov guruhlari, qisqa muddatli guruhlarda, maktaboldi tayyorlov guruhlari mavjud xususiy hamda davlat-xususuy sherikchilik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshirilib, o’quv yili oxirida tarbiyalanuvchilar maktab ta’limiga quyidagi bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo`lgah holda kirib boradilar.

1. O`qish ko`nikmasi bo`yicha:

- 1) so`zni sidirg`a o`qiydi;
- 2) so`zni bo`g`inlab o`qiydi;
- 3) barcha harflarni biladi va ularni o`qiydi;
- 4) so`zlarni bo`g`inlarga bo`ladi;
- 5) bo`g`inli kartochkalar yordamida bo`g`inlardan so`zlar tuzadi;
- 6) so`z, tovush` bo`g`in, gap haqida tushunchaga ega;
- 7) so`zning lug`aviy, bo`g`inli va fonetik tuzilishi to`g`risida tasavvurga ega bo`ladi;
- 8) peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlarni o`qiydi;
- 9) nutqni eshitadi va tushunadi.

2. Yozuv ko`nikmasi:

- 1) qog`ozda to`g`ri chiziqlar, so`zlar va qisqa gaplarni bosma harflarda yozadi;
- 2) daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi;
- 3) rasmlarni to`g`ri joylashtiradi;
- 4) hamma harfni bosma ko`rinishini yozishni biladi;
- 5) qo`lni uzmasdan nuqta chiziqlarini birlashtirib rasm chizadi;

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi:

- 1) so`zni bo`g`inlarga bo`ladi;
- 2) so`z yoki bo`g`indagi tovushni ajratadi;
- 3) hamma tovushni to`g`ri talaffuz qiladi;
- 4) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e’tibor qaratadi.

4. Og`zaki boglanishli nutqi:

- 1) o`z ona tilida erkin so`zlashadi;
- 2) turli gaplarni tuzadi;
- 3) shaxsiy tajribasiga tayanib rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi;
- 4) turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi;
- 5) qofiyalar tuzadi;
- 6) topishmoqlar topadi;
- 7) nutqida xorijiy so`zlarni qo`llaydi;
- 8) kichik she`rlarni yoddan aytadi;
- 9) boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so`zlab beradi;
- 10) turli ma`no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so`zlab berishni biladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiku, savodxonlikka o`rgatish o`ta mas`uliyatli jarayon bo`lib, mashg`ulotlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan ta'limiy o`yinlar, interfaol metodlar va AKTdan foydalangan holda tashkil etilishiga erishish lozim.

SAVODXONLIKKA TAYYORLASH MASHG`ULOTLARINING NAMUNA VIYISH LANMALARI

Yillik mavzuviy rejalashtirish mavzulariga moslashtirish

Mavzu:Nutq

Maqsad: tarbiyalanuvchilar:

- nutq haqida tushunchaga ega bo`ladilar;
- o`zaro hamkorlikda ishslash ko`nikmalariga ega bo`ladilar.

Kerakli jihozlar: narsa buyumlar va kishilar harakatlarini tasvirlovchi kartochkalar, ish daftari, O`zbekiston Respublikasi davlat ramzları tasviri, AKT

Mashg`ulot metodi: suhbat, tushuntirish, kichik guruhlarda ishslash

Mashg`ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism. 10 daqiqa

Tarbiyachi Po`lat Mo`minning “Vatan-bu.....” she`rini ifodali o`qib berish bilan mashg`ulotni boshlaydi:

Vatan deganim bu-

Yurak deganim.

Yurakka Vatanim

Kerak deganim.

Vatan deganim bu

O'zim deganim.
Birinchi ko'rGANIM
Ko'ZIM deganim.

Tarbiyachi bolalar bilan savol-javob o'tkazadi:

- Yurtimizda qanday bayram nishonlandi?
- Siz bu bayram haqida nimalarni bilasiz?

Doskaga “1-sentabr- Mustaqillik bayrami” tasvirlangan plakat ilinadi. Rasmiplakatga qarab, quyidagi savollar beriladi:

- Rasmda qayerlar tasvirlangan?
- Rasmda kimlarni ko`ryapsiz?
- Insonlar qanday ko'rinishda tasvirlangan?
- Bayram tantanalarida ishtirokingiz haqida so`zlab bering.

II. Asosiy qism. 15 daqiqa

Tarbiyachi yangi mashg`ulot boshlanayotganligi, bu mashg`lotlarda bolalarqiziqarli topshiriqlar, ta'limiy o'yinlar orqali o'qish va yozishni o'rganib olishlarini aytadiva «Nutq» mavzusini e'lon qiladi.

Bir qancha kishilar harakati tasvirlangan rasmlar ko`rsatiladi va suhbat o'tkaziladi.

- 1-rasm (ikki bola suhbatlashib turgan tasvir)
- 2-rasm (suvda suzayotgan bola)
- 3-rasm (mashg`ulot o`tayotgan tarbiyachi)
- 4-rasm (shaxmat o`ynayotgan bolalar)
- 5-rasm (futbolchilar)

Har bir rasm yuzasidan (ular kimlar?, qanday ish bilan mashg`ullar?) suhbat olib boriladi.

Bolalarga nutq bu kishilar tomonidan bildirilgan fikr, nutq orqali insonlar birlariga biron narsa haqida xabar berishlari, tushuntirishlari, voqealarni so`zlab berishlari mumkinligi tushuntiriladi.

Тарбиячиуңунәслатма(нұтқ ҳақида маълумот берүү)

Nutq-bu odamlarning til vositasidaaloqa bog`lashlaridir. Har bir kishining oz nutqi bor. Ammo ana shu nutqni bir necha tilde ifodalash mumkin.

Quvnoq daqiqa.

CD diskiga yozilgan “Go`zal yurtim” qo`shig`iga harakatli **mashq bajariladi**.

Bolalarga CD diskorqali biron bir ertakdan parcha eshittiriladi.

- Bolalar,biz nima eshitdik ?

Texnika vositaci orqali bayram tabrigi eshittiriladi.

- Biz nima eshitdik ?
- Buni nima deb ataymiz ? (nutq)
- Vatanimiz tasviri tushurilgan rasm ko`rsatiladi va tarbiyachi o`zi shu rasmni tasvirlab beradi. Bu **qilingan ish** ham nutq ekanligi aytildi.
- Bir qancha kishilar harakati tasvirlangan rasmlar ko`rsatiladi va ular orasidan **bugungi mavzuga oidlari ajratib olinadi**.
- **Bolalar tasvirlangan rasmlar orasidan qaysi birlari bugungi suhbatimizga mos keladi ?**

Bolalar ish daftari bilan ishslash.

Tarbiyachi bolalarga ish daftarlarining 3-sahifasini ochib tasvirlangan rasmlarni bo`yash kerakligini tushuntiradi.

Yakuniy qism:

Tarbiyachi mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar orqali suhbat o`tkazadi:

- Mashg`ulotda sizga nimalar yodqi?
- Mashg`ulotdan nimalarni eslab qoldingiz?
- Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo`yadingiz?
- O`zbekiston bayrog`i qanday uch rangda berilgan ekan?
- Biz bugun qanday bayram haqida suhbatlashdik?

Mavzu: Nutq va gap

Maqsad: tarbiyalanuvchilar:

- gap haqida ma'lumot oladilar;
- nutq va gap uzviyligi haqida tushuncha beriladi;
- tarbiyalanuvchilarning bog` va unda o`sadigan mevali daraxtlar haqidagi tasavvurlarini kengaytiriladi.

Kerakli jihoz: poliz, daraxt rasmlari, meva va poliz ekinlarining mulyoji ,buyumlar, kishilar harakatlarini tasvirlovchi kartochkalar, ish daftari, AKT.

Mashg`ulot metodi: analiz-sintez, suhbat, "Bo`lishi mumkin emas"ta'limiy o`yini.

Mashg`ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism. 5 daqiqa

Tarbiyalanuvchilarning mashg`ulotga hozirligini tekshirish.

Tarbiyalanuvchilarni mashg`ulotning maqsad va vazifalari bilan tanishtiruvchi suhbat:

- Qaysi mevali daraxtlarni bilasiz?
- Mevalarning inson sog`lig`i uchun foydasini aytib bera olasizmi?
- Bog`bonlar bog`da nima ishlar qilishadi?

-Siz bugungi mashg`ulotda nimalarni o`rganishimizni payqab oldingizmi?

II Asosiy qism. 20 daqiqa

1.“Bo`lishi mumkin emas” ta’limiy o`yini. Doskaga poliz va daraxt rasmi ilinadi. Poliz tasvirlangan maketga mevalarning rasmli maketi, daraxtga esa poliz ekinlari tasvirlangan maketlari ilingan bo`ladi. Tarbiyalanuvchilarga shu rasmdan kelib chiqib quydagi savolga javob olinadi:

- Polizda nimalar pishadi? (qovun, tarvuz...)

- Daraxtda –chi? (olma,nok, xurmo...) ta’limiy o`yin shu tariqa davom etadi.

-Polizda nima bo`lishi mumkin emas? (mevalar)

-Poliz deganda nimani tushunasiz? (poliz ekinlari yetishtiriladigan joy)

Bolalarga ko`zlarini yumishlari aytildi. Maketdagi meva va poliz ekinlarini joyi o`zgartiriladi va nima o`zgargani va bo`lishi mumkin bo`lmagan holat topiladi. Jarayon shu tariqa davom etadi.

-Bolalar avvalgi mashg`ulotimizda qanday mavzu bilan tanishgan edik?

-Nutq bu nima?

Bugungi mavzumiz gap.

1.Tarbiyachitarbiyalanuvchilarga meva yig`im-terimiga oid rasmlar asosida yo`llanma savollardan foydalanibmatn tuzdiradi. (Bu qayer?, U yerda nimalar o`sadi? Qanday mevalarni ko`ryapsiz?...)

Mana bog`. Bog`da mevalar pishdi...

2. Suhbat va analiz-sintez metodi yordamida tarbiyachi gapga xos asosiy xususiyatlarni ochib beradi:

-Siz rasm asosida nima tuzdingiz? (Matn)

-Matn (hikoya) nimalardan tashkil topdi? (Gaplardan)

3. Matndagi gaplar miqdorini aniqlash.

-Matnda nechta gap bor?

-Birinchi gapni ayting.

-Har bir gap nimani ifodalayapti? (Biror fikrni)

Gaplarni aytish mashq qilinadi. Gap so`zlardan tuziladi. U biron fikrni tugallanganligini bildiradi. Gapning boshida ovozning ko`tarilib, oxirida pasayishi, tugallanishida esa qisqagina to`xtash qilinishi aytib ko`rsatiladi. Shuning uchun har bir gapdan so`ng nuqta (.) so`roq(?), undov (!) belgilariqo`yilishi.“Mana bog” matning andazasi assosida tushuntiriladi:



Quvnoq daqiqa.

”Mevali salat” mashqi o`tkaziladi.

Bolalar doira hosil qilib o`tiradilar. Tarbiyachi har bir bolaning qulog`iga uchta mevadan bittasining nomini aytib chiqadi (olma, olcha, olxo`ri). Tarbiyachi qaysi mevaning nomini aytsa, o`sha meva nomini bilgan bolalar joylarini almashtiradilar yoki tarbiyachi “Mevali salat” desa hamma bolalar joylarini almashtiradilar, o`z joyiga o`tira olmagan bola boshlovchi bo`ladi.

Bolalar ish daftari bilan ishlash.

Tarbiyachi: Bolalar, ish daftaringizni oching. Daftaringizda tasvirlangan rasmlar asosida gaplar tuzamiz. Berilgan rasmlarni bo`yab qo`yamiz.

III. Yakuniy qism. 5 daqiqa

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg`ulotda sizga nimalar yoqdi? Nima uchun?
- Mashg`ulotdan nimalarni eslab qoldingiz?
- Gapni qanday tuzsa bo`lar ekan?
- Kimning tuzgan gaplari sizga ko`proq yoqdi?
- Gap haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzu: So`z va bo`g`in

Maqsad: tarbiyalanuvchilar:

- so`z vabo`g`in haqida ma'lumotga ega bo`ladilar;
- Tarbiyalanuvchilarining og`zaki, bog`lanishli nutqi o`stiriladi. Gap haqidagi tasavvurlarini kengaytiriladi.

Kerakli jihozlar: meva va poliz, sabzavot ekinlarining mulyoji, narsa va buyumlar, syujetli kartochkalar, ish daftari, AKT.

Mashg`ulot metodi: analiz-sintez, suhbat, “Mosini top”, “Kim ko`p terdi?” ta’limiy o`yinlari

Mashg`ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: 5daqiqa

Aytingchi, avvalgi mashg`ulotimizda siz bilan qaysi mavzuda suhbatlashgan edik?
.....(gap)

Barakalla bolajonlar, keling siz bilan bir o`yin o`ynaymiz. Bu o`yinimiz uchun bir necha kichik guruhlarga bo`linamiz. 4 kishilik guruhlari tashkil etiladi. Har bir guruhga syujetli rasmlar beriladi. Kim chiroyli gap tuza olish mashqi o`tkaziladi. Bolalar bir-birlariga guruh ichida tuzgan gaplarini aytib beradilar. Bolalarning o`zlari kelishib aytilgan gaplardan bittasini tanlab oladilar va hammaga eshittirib aytadilar(bu jarayonni tarbiyachi kuzatib tekshirib boradi).

II. Asosiy qism:20 daqiqa

Suhbat va analiz- sintez metodida tarbiyachi yordamida so`zga xos asosiy xususiyatlar ochib beriladi:

- Gap nimalardan tuzilgan? (So`zlardan)
- Kuz fasli keldi.
- Ushbu gap nechta so`zdan tashkil topgan



Bolalar ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi: Bolalar, ish daftaringizni oching. Ularga gap andozasi chizdirilib izohlantiriladi. Tarbiyalanuvchilar bilan gapdagi so`zlar miqdorini aniqlashga oid mashqlar o`tkaziladi. Daftarda Kuz keldi. Dalada sabzavotlar pishdi. Dehqonlar ularni yig`ib olmoqdalar.gaplariga mos rasmlar tasvirlangan .

Tarbiyachi so`z lar bo`g`inlarga bo`linishini bir so`zni olib uni bo`g`inga bo`lib tushuntirib beradi. Masalan ona o-na, lo-la, bo-la bu so`zlar 2 bo`g`inli ekanini va ularni bo`g`inga bo`lganda iyak va mushtimiz orqali aniqlashimiz mumkinligi ko`rsatib beriladi. Bir necha so`zlarni birgalikda bo`g`inga bo`lish mashqi bajariladi. Doskada shu so`zlar ni bo`g`inga bo`lish andozasi ko`rsatilib tushuntiriladi.

Quvnoq daqiqa:

“ Kim ko`p terdi? ” o`yini sabzavot va mevalar mulyaji yoki rasmi yordamida o`tkaziladi. Bolalar ikki guruhgaga bo`lib olinadi.

Olma, anor, olcha, shaftoli, olxo`ri, limon, ananas, banan, xurmo, uzum, karam, piyoz, bodring, pomidor, sholg`om, lavlagi, kortoshka, sabzi rasmlari tasvirlangan kartochkalar xona bo`ylab chochib qo`yilgan. Chap tomonida savat, o`ng tomonida yashik bor. Bolalar sabzavotlarni yashikka, mevalarni esa savatga joylashlari kerak. Qaysi guruhgaga ko`p to`plasa shu guruhgaga g`olib bo`ladi.

Bolalar ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi: Bolalar, ish daftaringizni oching. Ulargasoz`zlarni bo`g`inlarga bo`lish andozasi chizdirilib izohlatiladi. “Mosini top” ta’limiy o`yin o`tkaziladi. Daftar yuqorisida 3ta buyum rasmi pasda esa shu so`zlarni bo`g`inga bo`lish andozasi chalkash berilgan bolalar mosini chiziqcha bilan birlashtirish orqali topadilar.

III. Yakuniy qism:5 daqiqa

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
 - Mashg`ulotda sizga qanday o`yin yoqdi?
 - Mana bu gapda nechta so`z bor ekan ?
- Kim so`zlarni bo`g`inlab bera oladi ?

Mavzu : Tovush va harf

Maqsad: tarbiyalanuvchilarga tovush va uning xilma xilligi haqida ma'lumot berish. Tovushlar harflar bilan ifodalanishini tushuntirish, so`z vabo`g`inlardan tovushni ajrata olishni o`rgatish, o`zaro hamkorlikda ishslash qobiliyatini tarkib toptirish.

Mashgulot metodi: analiz va sintez, kichik guruhlarda ishlash, ta’limiy o‘yin “Nimaning ovozi”

Mashg`ulot johozi: Kitob maketi, turli ertak kitoblari, buyumlar tasvirili kartochkalar, AKT,

Mashg`ulotning borishi:

I.Tashkiliy qism: 10 daqiqa

T: Bolajonlar barchangiz bormisiz

Mashg`ulot uchun tayyormisiz.

B. Mana bizlar hamamiz,

Zukko o`g`il qizlarmiz.

Qani bolajonlar, hammamiz o`z joylarimizni egallab olamiz va bugungi mashg`ulotimizni boshlaymiz. (har bir stolda kerakli o`quv qurollar borligi tekshiriladi)

Ayting-chi avvalgi mashg`ulotimizda siz bilan qaysi mavzuda suhbatlashgan edik?
.....(so`z va bo`g`ilar)

Barakalla bolajonlar, keling siz bilan bir o`yin o`ynaymiz. Bu o`yinimiz bir necha bosqichda o`ynaladi.

“Hamkorlikda ishslash”

1- Bosqich

Tarbiyalanuvchilar juftlikda berilgan rasmni nomi va so`zni bo`g`inga bo`lib aytadilar. (olma, ol- ma, tarvuz, tar- vuz)

2- Bosqich

Tarbiyachi bilan birga bir necha rasmni ifodalovchi so`zni aytib bo`ginga bo`ladilar. Bu jarayonda hamma baravar xor bo`lib qaytaradilar.

3- Bosqich

Hamma bolalar doira bo`lib turib oladilar va o`z qollaridagi kartochkani o`rtoqlariga ko`rsatib navbat bilan bo`g`inlanb beradilar.

Ish yakunida bolalar ishi rag`batlantiriladi.

II.Asosiy qism: 20 daqiqa

Bolajonlar, bugungi mashg`ulotimiz mavzusi tovush va harflar.

Tarbiyachi bir necha narsaning ovozini magnit tasma orqali eshittiradi va uni bolalardan so`raydi. Masalan suvning shildirashi, oyoq tovushi, musiqa ohangi, mashina ovozi

Ularni tovush ekanligini va uni biz quloqlqrimiz orqali eshitishimizni aytib o`tadi. Bular musiqa va tabiatdagi buyum va narsalarning harakatlanishidan chiqadigan ovoz. Hatto hayvonlar ham ovoz chiqaradilar uni ko`pchililingiz eshitgansiz. Xo`roz, sichqon, qo`y, bo`ri qanday ovoz chiqaradi kim aytib bera oladi.

Insonlar ham gapirganlarida ovoz chiqishi va ining ham o`z nomi bor. Uni biz tovushlar deb ataymiz. Tovushlar birlashib esa ma`lum tilni hosil qiladi. Mana biz qaysi tilda gaplashamiz? Ha, to`g`ri o`zbek tilida gaplashamiz. Do`srlaringiz orasida qanday tilda gaplashadiganlarini uchratasiz. (rus, tojik, qozoq...) shunday ekan har bir tilning o`z tovushlari va ular ifodalaydigan harflari bor.

Quvnoq daqiqa:

“Yomg`ir” qo`shig`iga harakatli mashq bajariladi.

O`zbek tilida 29 ta harf mavjud. Bugun sizga shu harflarni tanishtirish maqsadida sehrli kitobchani olib keldim. Bolalarga kitob maketi ko`rsatiladi va uni ichi ochiladi kitob varaqlarida rasmlar bo`ladi lekin harflari bo`lmaydi. Tarbiyachi hayrat bilan kitobni varraqlydi ammo hech qanday harfnini topa olmaydi. Ekranda laylakvoy paydo bo`ladi.

Ovoz : men hamma harflarni berkitib qo`ydim agar men bilan sayohatga borsangiz sizga uni topishga yordam beraman.

Bolajonlar, rozi bo`larlik bo`lmasa qanday qilib o`qishni o`rganamiz. Kitobni o`qish uchun esa bizga harflar zarur. Ulardan bo`g`in, so`zlar hosil qilishimiz mumkin.

Bolalar ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi: Bolalar, ish daftaringizni oching. Mevalar haqidagi berilgan topishmoqlar o`qituvchi tomonidan aytildi, uning javobi topilib bo`g`in-tovush tarhibi tahlil qilinadi. Daftarda anor rasmi va so`z, bo`g`in va tovush andozasi berilgan. Olma, nok, banan rasmlari berilgan ammo ularni andozasi birgalikda bajariladi.

Masalan: Kichkina dekcha

Ichi to`la mixcha (anor)

-Anor so`zini bo`g`inga bo`ling.

-Anor so`zi necha bo`ginli so`z ekan?

-1-bo`g`inda nechta tovush bor?

2-bo`g`indagi tovushlar sonini aniqlang.

-Tovushni nima qilamiz?

-Tovushni talaffuz qilamiz, eshitamiz .

Xulosalash: A-nor: 2 ta bo`g`in, 4 ta tovush (**a,n,o,r**) dan iborat. Tovushlarni talaffuz qilamiz (yoki aytamiz), eshitamiz.

III.Yakuniy qism;

Tarbiyachi: Laylakvoy so`z va bo`g`inlardan tovushlarni agrata olasanmi?.

Laylakvoy: Ha.

Tarbiyachi: kelinglar bolalar, “Qanday tovush” o`yinini o`ynaymiz. Avval tarbiyachi bir necha so`zni aytib uning birinchi tovushini ajratib talaffuz qiladi. So`ng Laylakvoyni bilan birga bajariladi.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Mashg`ulotda sizga qanday o`yin yoqdi?

-Mana bu gapda nechta so`z bor ekan ?

Kim so`zlarni bo`g`inlab bera oladi ?

Mavzu: Aa harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:tarbiyalanuvchilar –

- unli harflar guruhiba kiruvchi **Aa** harf-tovushi bilan tanishadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo`l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, A harfli kartochkalar,rasmli alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar.

Mashg`ulot metodi: “Tabassum hadyasi” muzyorar mashqi, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, tushuntirish

Mashg`ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism. 3-5 daqiqa

Muzyorarmashqi: “Tabassumhadyasi”

Tarbiyachiguruhtarbiyalanuvchilarinidoirabo`libturishlariniso`raydi.

Bolalarqo`llariniushlabturadilar, yonidagio`rtog`igaqarabtabassumhadyaetadilar. Shu tarzda mashq davom ettiriladi. Mashqdan so`ng bolalar o`z joylarini egallaydilar.

2. Asosiy qism. 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **A** tovushi bor ayiq tasviri ko`rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini-so`zni aytadilar. Tarbiyachi **A** tovushini cho`zib (a-a-a-ayiq) aytadi va qaysi tovush cho`zib aytilayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi. Tarbiyalanuvchilar **A** tovushini aytgach, tarbiyachi uning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma:

A tovushi unli tovush bo`lib talaffuz qilinganda cho`zib aytildi. Talaffuz vaqtida o`pkadan chiqayotgan havo hech qanday to`sinqqa uchramaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda **A** tovushli so`zlarga misollar topiladi. Shundan so`ng **A** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi va quyidagi amaliy ish bajariladi.

Amaliy ish

Tarbiyachi bolalargakatta bosma **A** harfini doskada quyidagicha chizib ko`rsatib beradi. Ikkita tayoqchaning yuqorigi uchlari birlashtirilib, ularning o`rtasiga belbog`cha qilib uchinchi tayoqchachiziladi.Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta Aharfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga Ahafi haqida quyidagi quvnoq she`rni aytib berishi mumkin.

Alifboning boshi – “A”

Uni hamma biladi,

Mashhurlikda kerilib
Oyoqni keng qo`yadi.
Mana ikkita ustuncha:
O`rtasida belbog`cha
Bu harfni bilding-a?

Ro`parangda turar “A”

Aharfi kitobga joylab qo`yiladi. (kitob maketiga Akesma harfi yopishtiriladi.)

Quvnoq daqiqa

Bolalar she`r so`zlariga mos harakatlarni bajaradilar.
Ayiq polvon o`rmonda
Yemish izlab yuradi.
Uxlaganda tushida
Har kun asal ko`radi.

Tarbiyachi harflarninguch xususiyativa tovushlarning ikki xususiyati haqida ma'lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma:

Harflaro `qiladi, yoziladi va ularniko `rish mumkin.

Tovushlareshitiladi va talaffuz qilinadi.

Harflar bosh va kichik shaklda bo`ladi

Amaliy mashq

Tarbiyachi bir nechta so`zni bo`g`inlarga bo`lib (a-na, o-na, olma, non, kapalak, uy, ari) aytadi. Bolalar aytilgan so`zlar bo`g`inlarida Aunli ishtirok etgan bo`lsa A harfli kartochkani baland ko`taradilar.

Ish daftari bilan ishlash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar vazifalarni mustaqil bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab **Aa** harfining bosma shaklini yozing.
2. Aharfi so`zning boshida kelgan rasmlarnichiziq bilan birlashtiring.
3. So`zlarni bo`g`inga bo`ling. **A** tovushi o`rnini qizil rangga bo`yang.

Yakuniy qism: 5 daqiqa

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg`ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Atovushi haqida nimalarni bilib oldingiz? (Unli tovush, uni cho`zib aytamiz. Atovushini eshitamiz va talaffuz qilamiz)
- Bosh Aharfini nechta tayoqchadan hosil qildingiz? (Uchta tayoqcha)
- Harflar qanday shaklda bo`ladi? (Harflar bosh va kichik shaklda bo`ladi)

Mavzu: *O* o harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

tarbiyalanuvchilar –

- unli harflar guruhiga kiruvchi *O* o harf-tovushi bilan tanishadilar;
- ***O*** tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- ***O*** tovushini so`zning boshida, o`rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmlı alifbo, rangli qalam, kitob maketi, so`zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, **unli tovush belgisi bor kubik** () , kesma harflar, ish daftari, rangli iplar, ruchka yoki flomasterlar, AKT.

Mashg‘ulot metodi: Muzyorar mashqi: “Bir-birimizga ezgu so‘zlarimizni aytamiz”, analiz-sintez, suhbat, nafas mashqi, ta’limiy o‘yinlar: “Ortiqchasini top”, “Zanjir”, amaliy ish.

Mashg` ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3-5 daqiqa

Muzyorar mashqi: “Ezgu so‘zlar”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo`lib qo‘llarini ushlab turishlarini va yonidagi o`rtogiga bitta ezgu so‘zni aytishlarini so`raydi. (bolalar bir-biriga “sen yaxshisan”, “sen quvnoqsan”, “sen tirishqoqsan”, “sen ozodasan”, “sen zo‘r rasm chizasan” kabiezgu so‘zlarini aytishlari mumkin).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

Tarbiyachi “Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *O* tovushi bor olma rasmini ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi *O* tovushini cho`zib (o-o-o-ol-ma) aytadi va qaysi tovushni cho`zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachiga eslatma.

O tovushini talaffuzida quyidagi holat yuz beradi: Lablar aylana shaklida(dumaloqlangan) va bir oz oldinga chiqadi, tishlar dumaloqlangan lablar bilan bekiladi, til ildizi bir oz yuqoriga ko‘tariladi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘i orqali o‘tib ketadi, tovush boyamlari bog‘langan bo‘lib, tebranadi va tovush hosil bo‘ladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytishi. va unli tovushlarni qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklini ko‘rsatiladi) aytadi.

Tarbiyachi bolalarga so‘zlarning tovush andozasini ekran orqali tushuntiradi:

-unli tovush

Olma so‘zining birinchi tovushi *O*. Biz birinchi katakni qizilga bo‘yaymiz.

- so‘zdagi birinchi tovushni ajratish

Soat so‘zining ikkinchi tovushi *OBiz* ikkinchi katakni qizilga bo‘yaymiz.

-so‘zning o‘rtasidagi kerakli tovushni ajratish

Oymomo so‘zining oxirgi tovushi *O*. Biz oxirgi katakni qizilga bo‘yaymiz.

-so‘zdagi oxirgi tovushni ajratish

Tarbiyachi bolalarga unli tovushlarni mana bunday belgili kubiklarda ham ajratib olishlari mumkinligini aytib tushuntiradi. Buning uchun bolalar kubikdagi belgilar ifodasini bilib olishlari kifoya. Nutqimizda hyech qanday to‘sinqqa uchramay, cho‘ziq aytildigan tovushlar ifodasi kubikning bir tomoniga labning ochiq holati rasmii yopishtirilib belgilangan kubikga joylashtirilganligini tushuntiradi va bolalarga harfli kubiklarni o‘ynaganlarida kubikning tomoniga yopishtirilgan tovush belgisiga va tomonlarda ko‘rsatilgan harflarga e’tibor berib oynashlarini ta’kidlaydi.



Bolalarga *O* tovushi bilan boshlanadigan bir necha buyum rasmlli kartochka orqali ko‘rsatiladi va birga talaffuz qilinadi va ularga *O* tovushi bilan boshlangan so‘zlar qatori tuzish uchun “Zanjir” o‘yin o‘ynaladi(bolalar koptochni bir-birlariga uzatib o‘ynaydilar).

Unda bolalar doira bo‘lib turib oladilar va birinchi bola *O*tovushi bilan boshlanadigan so‘z aytadi ikkinchi bola boshqa shunday so‘z aytadi va o‘yin shu tariqa yana birinchi bolaga qaytib kelgunga qadar davom etadi. Masalan: Olma, olcha, olxo‘ri, ona...kabi

Tarbiyachi “Zanjir” o‘yinidan so`ng tarbiyalanuvchilarga *O* tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o`tkaziladi.

Bolalar javoblari tinglangandan so`ng *O* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *O* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Harflarning uch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

O harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *O* kesma harfi yopishtiriladi.)

Quvnoq daqiqa

“Mevalar salati” o‘yini:

Bolalar doira bo`lib o`tiradi. Boshlovchi har bir bolaning qulog‘iga uchta mevaning nodaqiqai aytib chiqadi (olma, olcha, olxo‘ri). Boshlovchi qaysi mevaning nomini aytsa, o‘sha mevalar joyini almashtiradi yoki boshlovchi “Mevalar salati” desa hamma bolalar joylarini almashtiradilar, o‘z joyiga o‘tira olmagan bola boshlovchi bo‘ladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *O* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta *O* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *O* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

G‘ildirakka qarasang
“**O**” harfini ko‘rasan
Bu harfda burchak yo‘q
Shuning uchun dumoloq.

Tarbiyachi bolalardan ikkita bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan bosh “**O**” harfini yasab ko‘rsatishlarini so‘rashi mumkin. (Tarbiyachi namuna ko‘rsatadi).

Amaliy masq.

Tarbiyachi **O** unli ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (*Ol-ma, ol-cha, ol-ma-xon, oy-mo-mo, o-lov, bol-ta, to-vuq*) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda **O** unli ishtirok etgan bo‘lsa **O** harfni baland ko‘taradilar.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftarlarda mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab *O* harfining bosma shaklini yozing.
2. *O* harfi so‘zning boshida kelgan rasmlarni chiziq bilan birlashtiring.
3. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ling. *O* tovushi o‘rnini qizil rangga bo‘yang.
4. So‘zlarni qarsak chalib bo‘g‘inlarga bo‘ling va nechta bo‘g‘in borligini aniqlang. Bo‘g‘inlar sonini aylana ichiga yozing.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- O harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bitta bosh va ko‘rsatkich barmog‘ingiz bilan kichik “**o**” harfini yasab ko‘rsating.

Mavzu: *U u* harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

tarbiyalanuvchilar –

- unli harflar guruhiga kiruvchi Uu harf-tovushi bilan tanishadilar;
- “**U**” tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- “**U**” tovushini so‘zning boshida, o‘rtasida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lishni va bo‘g‘inlardan so‘z tuzishni bilib oladilar;
- bolalarning kelajakda o‘z oldiga maqsadqo‘yish qobiliyati shakllantiriladi;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, rangli iplar, ruchka yoki flomasterlar, bosh “**U**” va kichik “**u**” harflari “**U**” tovushi bor suratlar. “**U**” tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Men nimani yaxshi ko‘raman”, analiz-sintez, suhbat, ta’limiy o‘yin “So‘zni top”, “Zanjir”.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Men nimani yaxshi ko‘raman”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so‘raydi. Bolalar bir-birlariga nimani yaxshi ko‘rishlarini aytadilar. (men rasm chizishni yaxshi ko‘raman, men raqsga tushishni yaxshi ko‘raman, musiqa tinglashni yaxshi ko‘raman, men she‘r yodlashni yaxshi ko‘raman, men ertaklarni aytib berishni yaxshi ko‘raman.....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

Mashg‘ulotning borishi:

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda o‘rganilgan harflarni o‘qib talaffuz qilib berishni bolalardan so‘raydi. Bolalar harflarni topib, uning qanday harf ekanligini (bosh yoki kichik) aytib, talaffuz qilib ko‘rsatadilar.

So‘ngra “Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **U** tovushi bor ukki rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi **U** tovushini cho‘zib (u-u-u-kki) aytadi va qaysi tovushni cho‘zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi. Tarbiyalanuvchilar **U** tovushini aytgach, tarbiyachi

U tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Utovushini talaffuzida lablar oldinga naychaga o‘xshab chiqqan, tishlar birlashmagan bo‘ladi, va ular lablar bilan bekitiladi, tilning orqa qismi yumshoq tanglaygacha ko‘tarilgan, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi og‘iz orqali o‘tadi, tovush boyamlari birikib va tebranib ovoz hosil bo‘ladi.

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda Utovushini xo‘r bo‘lib aytadilar. **U** tovushi unli tovush ekanligi, u og‘izda to‘sinqqa uchramayotganini, qancha cho‘za cho‘zilishi aytib mashq qilinadi.

Tarbiyalanuvchilardan **U** tovushli so`zlar o`ylab topishlari so`raladi. Shundan so`ng **U** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda **U** harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

U harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga **U** kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi.Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi, tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma **U** harfini doskada chizib ko`rsatib beradi.Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta **U** harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga **U** harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Taqaga o‘xshab ketar
“**U**” harfining o‘zları,
Shu harfdan boshlanar
“Uzum”, “ustun” so‘zları

Amaliy masq.

Tarbiyachi **U** unli ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (u-zum, uk-ki, u-chuv-chi, un, uy) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda **U** unli ishtirok etgan bo‘lsa **U** kesma harfni baland ko‘taradilar.

Quvnoq daqiqa

“Shamol esyapti” o‘yini

Bolalar stulchalarda yarim doira shaklida o‘tiradilar, tarbiyachi shunday deydi: Biz yozda o‘rmonga sayrga bordik. Dala bo‘ylab ketyapmiz, quyosh oltin nurlarini har tomonga sochyapti, yengil shamol esib o‘tlarni, gullarni tebratyapti. Shamol sekin esyapti, mana bunday: “**u**”-“**u**”-“**u**”, (tarbiyachi “**u**” tovushini sekin va cho‘zib talaffuz etadi). Mana bog‘chaga ham yetib keldik, bizlar ko‘plab gullar, mevalar terdik va uyimizga qaytmoqchi bo‘ldik. Birdaniga kuchli shamol esa boshladı. Shamol qattiq guvillay boshladı: “**u**”-“**u**”-“**u**”... (tarbiyachi bu tovushni baland va

uzoq talaffuz etadi). Bolalar tarbiyachiga taqlid qilib, yengil va kuchli esayotgan shamolning ovozini takrorlaydilar.

Ish daftari bilan ishlash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftarlarda mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab *U* harfining bosma shaklini yozing.
2. So‘zlarni tahlil qiling *U* harfining o‘rnini qizil rangga bo‘yang.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- “**U**” harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?

Mavzu: *Ii* harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

tarbiyalanuvchilar –

- unli harflar guruhiga kiruvchi *Ii* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *I* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *I* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘shib o‘qishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *I* va kichik “*i*” harflari *I* tovushi bor suratlar. *I* tovushi ishtirot etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, unli tovush belgisi bor kubik, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bolajonlar, bormisiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yin “Rasmni joyiga qo‘y”, “Zanjir”.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Tarbiyachi: Bolajonlar, barchangiz bormisiz
Mashg‘ulot uchun tayyormisiz.

Bolalar: Mana bizlar hamamiz,

Zukko o‘g‘il qizlarmiz.

Mashg‘ulotga tayyormiz

Tarbiyachi bolalar “Mashg‘ulotga tayyormiz” deganlaridan keyin bolajonlardan o‘z joylarini egallab olishlarini so‘raydi.

2. Asosiy qism: 20 daqiqqa

Mashg‘ulotning borishi:

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda o‘rganilgan harflarni o‘qib talaffuz qilib berishni bolalardan so‘raydi. Bolalar harflarni topib, uning qanday harf ekanligini (bosh yoki kichik) aytib, talaffuz qilib ko‘rsatadilar.

So‘ngra “Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **I** tovushi bor ilon rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi **I** tovushini cho`zib (i-i-i-lon) aytadi va qaysi tovushni cho`zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachiga eslatma.

Itovushini talaffuzidalablar jilmaygan holatdagidek, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar orasi ochiq, tilning keng uchi pastki tish qirralariga, tilning yon qirralari esa yuqorigi katta tishlarga tegib turgan, til kuragi qattiq tanglayga ko‘tarilgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan burun yo‘llarini yopib turgan, havo oqimi og‘iz orqali o‘tib ketadigan holatda bo‘ladi, tovush boyamlari esa birikkan bo‘lib, tebranadi va tovush hosil qiladi.

Tarbiyalanuvchilar **bilan birga I** tovushli so`zlar o‘ylab topiladi. Shundan so`ng **I** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda **I** harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

I harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga **I** kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqqa

«Otlar» o‘yini

O‘yinning borishi: Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh bolalari ot haydovchilar, ikkinchi guruh bolalari esa "otlarga" bo‘linadi. Otlarni tasvirlovchi bolalar ikkitadan bo‘lib qo‘l ushslashib turadilar

Otlar haydovchining boshqaruvi ostida otlardek “iii” deb yuguradilar. Tarbiyachining buyrug‘iga binoan haydovchilar otlarni «dr» deb to‘xtatadilar. So‘ngra bolalar rollarini almashadilar.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma **I** harfini doskada chizib ko‘rsatib beradi. Tarbiyachi ko‘rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta

*I*harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *I*harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Ko‘chadagi ustuncha
Tikka bo‘lib turarkan,
yerga yotqizib qo‘ysa-
Yotmayman, deb aytarkan

Amaliy masq.

Tarbiyachi *I* unli ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (ip, it, i-lon, igna) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *I* unli ishtirok etgan bo‘lsa *I*kesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftarlarida mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab *I*iharfining bosma shaklini yozing.
2. Rasmlarni nomlang. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ling. *I* tovushi o‘rnini qizil rangga bo‘yang.
4. “Harflarni qo‘shib o‘qiymiz” ta’limiy o‘yin

“Harflarni qo‘shib o‘qiymiz” ta’limiy o‘yin. Harflarni qo‘shib o‘qishga o‘rgatishda tarbiyachi bolalarga “Birinchi harfni barmoq bilan ko‘rsatib nomi aytildi va yo‘l bo‘ylab ikkinchi harfga yetib boriladi. Bolaga “Ikkinchi harfga yetib borguncha birinchi harfni cho‘zib turasan” deyiladi. Ikkinchi harfnинг nomi cho‘zib turilgan birinchi harfga qo‘shib yuboriladi. Bola mustaqil ravishda barmog‘i bilan yo‘l bo‘ylab birinchi harfni ikkinchisiga qo‘shishi lozim.

Tarbiyachi bolalarga harflarni qo‘shib o‘qishni ko‘rsatib tushuntiradi.



Harflarni qo‘shib o‘qing: **AU, UA, IA, OI**

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulda sizga nimalar yoqdi?

- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- **I** harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qaysi harflarni qo'shib o'qidik?
- So'zlarni bo'g'inga qanday bo'ldik?

Mavzu: N tovushini talaffuz qilish

Maqsad:

- undosh harflar guruhiga kiruvchi **Nn** harf-tovushi bilan tanishadilar;
- **N** tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- **N** tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rganadilar;
- Bo'g'inlardan so'z tuzishga o'rganadilar;
- do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

"Laylakvoy" media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho'plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh **N** va kichik "n" harflari **N** tovushi bor suratlar. undosh tovush belgisi bor kubik, **N** tovushi ishtirok etgan so'zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so'zlar yozilgan kartochkalar, so'zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, "Harflarni qo'shib o'qish" mavzusida plakat, bo'g'in andozali kartochkalar.

Mashg'ulot metodi: muzyorar mashqi "Yaxshi tilaklar", analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta'limiy o'yinlar: "Rasmni joyiga qo'y", "Harflarni qo'shib o'qiymiz", "Zanjir", "Bo'g'inlardan so'z tuzing"

Mashg'ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar **mashq**: "Bir-birimizga yaxshi tilaklar tilaymiz"

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo'lib turishlarini so'raydi va hamma bolalar bir-birlarini qo'llarini ushlab, bir-biriga qarab yaxshi tilaklarni aytishlarini aytadi. (bolalar bir-biriga yaxshi tilaklarini aytadilar: sen yaxshisan, sen donosan, sen chiroylisan, sen jasursan....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

"Laylakvoy" media mahsulotidan ekranda **N** tovushi bor narvon rasmi ko'rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi **N** tovushini cho'zib (n-n-n-ar-von) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganligini

tarbiyalanuvchilardan so`raydi. Tarbiyalanuvchilar *N* tovushini aytgach, tarbiyachi *N* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ntovushini talaffuzidalablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, oldingi tishlar ko‘rinib turadi, yuqorigi va pastki tishlar bir-biriga yaqinlashadi-yu, lekin birikkan bo‘lmaydi, Ntovushini a,o, i, tovushlari bilan qo‘sib talaffuz etilganda, tilning oldingi kurak qismi yuqori tishlarga yoki alveolaga tiralgan bo‘ladi, Ntovushini ya,ye,yu, tovushlari bilan qo‘sib talaffuz etilganda tilning uchi pastga tushgan va pastki kurak tishlarga tiralgan bo‘ladi, yumshoq tanglay pastga tushadi, pirovardida o‘pkadan chiqayotgan havo burun yo‘llaridan o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘lanib tebranadi, natijada tovush hosil bo‘ladi.

Ntovushini talaffuz etganda havo og‘izga kelgach, til yuqori tishlarga tegadi va n tovushi hosil bo‘ladi. Ana shu til va tish tegib turgan joy to‘sinq bo‘ladi. Shuning uchun Ntovushi to‘sinqqa uchraydi, qisqa aytiladi, Ntovushini aytilganda ovoz bilan shovqin ham eshitiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan **Ntovushining** xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. *N* tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi.

Shundan so`ng *N* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda *N* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *N* undosh tovush ekani, undosh tovush ko‘k rangda belgilanishini (ko‘k kvadrat shaklni ko‘rsatiladi) aytadi.

So‘zlearning tovush andozasi tushuntiriladi:



-undosh tovush



-so‘zdagi birinchi tovushni ajratish



-so‘zning o‘rtasidagi kerakli tovushni ajratish



-so‘zdagi oxirgi tovushni ajratish

Kubiklarda esa (tarbiyachi kubikni ko‘rsatodi) undosh tovushni kubikning bir tomoniga labning yopiq holati rasmi yopishtirilib belgilanadi. Siz kubiklarni o‘ynayotganingizda bilingki, kubikning bir tomoniga labning yopiq holati rasmi yopishtirilib, qolgan tomonlarga harflar ko‘rsatilgan bo‘lsa, demak bu kubikdagi harflar undosh harflar bo‘ladi.



Mana qarang, kubikning bir tomoniga labning yopiq holati rasmi yopishtirilib, boshqa tomonida *N* harfi yopishtirilgan. Demak, *N* harfi undosh tovush ekanligini bildiradi.

Tarbiyachi: Bolalar, *N* tovushi so‘z boshida (non, novvoy, no’xat, narvon), o‘rtasida (igna, oyna, ona,sandiq), oxirida (o‘yin, o’tin, ayvon, limon, narvon, lagan) keladi.

N harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *N* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi.Xulosada harflar o`qilishi, yozilishi va ularni ko`rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Quyoncha

Dikir-dikir sakraydi

Uzun quloq quyoncha.

Mahkamushlabqo‘lida

Sabzisiniquyoncha.

Barmoqlar tugiladi. Ko‘rsatkich hamda o‘rta barmoq ko‘tarilib uyon-buyon qimirlatiladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *N* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta *N* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *N* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Uni yasamoq oson,
Diqqat bilan qaragin-
Ikki ustun orasiga
Qiya ustun tiragin.
“Non, nog‘ara” so‘zlari
Qanday harfdan boshlanar?
To‘g‘ri topding, bolajon,
Boshida “N” yozilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *N* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (non, novvoy, no‘-xat, nar-von) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *N* undosh ishtirok etgan bo‘lsa *N* kesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftarlarida mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab *N* harfining bosma shaklini yozing.

2. N harfi so‘zning boshida kelgan rasmlarni chiziq bilan birlashtiring.
3. Rasmlarni nomlang. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ling. N tovushi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
4. Harflarni qo’shib o’qiymiz.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- N harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Qaysi harflarni qo’shib o‘qidik?
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?

Mavzu: Tt harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi Tt harf-tovushi bilan tanishadilar;
- T tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- T tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo’shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh T va kichik “t” harflari T tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, T tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo’shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Hammamiz birga harakatlanamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Rasmni joyiga qo‘y”, “Harflarni qo’shib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Hammamiz birga harakatlanamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Rasmni joyiga qo‘y”, “Harfni qo’shib o‘qiymiz”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”, “Zanjir” .

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo‘lib turib olishlarini so‘raydi va bolalarga murojaat qilib “Hammamiz birga harakatlanamiz”, - deyiladi.

Qo‘llarimiz belda.

Keyin esa yonda

Ko‘taramiz tepaga

Keyin esa yelkaga

Qo‘llarimiz ko‘p-ko‘p

Oyoqlarimiz to‘p-to‘p

Quyon bo‘lib sakraymiz

Mashg‘ulni boshlaymiz.

Bolalar joylariga o‘tiradilar.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *T* tovushi bor tovuq rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi *T* tovushini takrorlab (t-t-t-to-vuq) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *T* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ttovushini talaffuzidalablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, ammo birikmaydi, *T* tovushi unli “a”, “o”, “i”, “u” tovushlari bilan birgalikda talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga yoki alveolaga tiralib turadi, Ttovushi “ya”, “ye”, “yu” unli tovushlari bilan talaffuz etilganda tilning uchi pastga tushgan bo‘lib, pastki kurak tishlarga tegib turadi, yumshoq tanglay yuqoriga ko‘tarilgan bo‘lib, tomoqning orqa devoriga tiraladi va burun yo‘llarini yopadi, buning natijasida o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari ochiqbo‘lib, tovush jaranglamaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **Tundosh tovushlar sarasiga kirishi, undosh tovush unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.**

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan **Tovushining** xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. Shundan so`ng *T* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi.

Bunda Tharfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Tharfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *T*kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Poyezd”

Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar: birinchi guruh bolalari poezdning vagonchalari bo‘lishadi, ikkinchi guruh bolalari – ishchilar. Tarbiyachining poezd yurib ketdi deyishi bilan bolalar qo‘llarini tirsakdan bukib, aylanma harakat qilib, bir-birlarining ketlarida “т”-“т”-“т”, deb yuradilar. Bolalar “т”-“т”-“т” deyish bilan poezd va vogonchalar g‘ildiraklarining taqillashini aks ettiradilar. Ma'lum bir joyga – “bekatga” borib poezd to‘xtaydi. Ishchilar vagonchalarni tekshirib chiqadilar. Ular qo‘llaridagi kichkina bolg‘acha bilan vagoncha bo‘lgan bolalarning oyoq kiyimlariga urib taqillatib ko‘radilar. Taqillatish vaqtida (ishchi bo‘lgan bolalar) “taq-taq”... deb aytadilar. Vagonlarni tekshirib bo‘lgach, tarbiyachi poezdning yurib ketishi uchun signal beradi. Bolalar rollarni almashtirib, yo‘lda davom etadilar.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *T* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta *T* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *T* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

-Qani aytgin, sen qizcha
Bu qandayin bolg‘acha?
Bolg‘acha “taq-taq” etar:
“Т”га до‘стман,- deb aytar

Amaliy masq.

Tarbiyachi *T* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (to-vuq, tom, tan-dir, **ot, it, o-ta, mit-ti**) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *T* undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa *Tkesma* harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftarlarda mustaql ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab *T*harfining bosma shaklini yozing.
2. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ling. *T* tovushi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
4. Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- *T* harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bo‘g‘inlardan qaysi so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: Ss harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- undosh harflar guruhibiga kiruvchi Ss harf-tovushi bilan tanishadilar;
- S tovushli so‘zлarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- S tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh S va kichik s harflari S tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, S tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Hammamiz birga harakatlanamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar **mashq**: “Hammamiz birga harakatlanamiz”

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo‘lib turib olishlarini so‘raydi va “Hammamiz birga harakatlanamiz”, - deydi.

Assalom

Har kun tongda turaman,
Dildan yayrab yuraman.
Yayrab desam assalom,
Zavq olaman bir olam.
Salom so‘zi muqaddas,
Salom o‘zi muqaddas.
Tog‘a, xola, ammaga,
Salom-deyman hammaga.
Hamma dildan salom der
Rahmat derman bolam der.

Tarbiyachi: Bolajonlar ertalab uyqudan turgandan so‘ng oila a’zolarimizga, kun davomida kattalarni ko‘rganda albatta salom berish bu odobdandir.

Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda S tovushi bor soat rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi S tovushini takrorlab (s-s-s-so-at) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachiga eslatma.

Stovushini talaffuzidalablar kulgu holatida, tishlar ko‘rinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng qismi pastki kurak tishning orqasida turadi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlar yoki alveolalar bilan tirkish hosil qiladi, til kuragining yon qirralari yon tishlarga zich tiralgan bo‘lib, faqat o‘rtasida ingichka tirkich qoladi, tilning o‘rtasida sovuq havo oqimi o‘tadi, buni his etish uchun qo‘l kaftining orqa qisdaqiqai og‘iz oldiga olib borish kerak, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopadi va buning natijasida havo oqimi og‘izdan o‘tadi, tovush bog‘lamlari ochiq, tovush jaranglaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga S undosh tovush ekani, undosh tovush unlitovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, S tovushining talaffuzi o‘rgatadi.

So‘ngra tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan **Stovushining** xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. S tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng S harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda S harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

S harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga S kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

Bolalar doira bo‘lib turib oladilar. Bolalar qo‘llarini harakatlantirib tarbiyachi bilan birga talaffuz qiladilar: Nasosdan havo chiqyapti va xushtak chalyapti: “S”-“S”-“S”

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma S harfini doskada chizib ko‘rsatib beradi. Tarbiyachi ko‘rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta S harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga S harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Ilmoqchaga o‘xshatib,
“S” bo‘ynini egadi,
Davom ettirsa uni,

Sakkiz bo‘lib qoladi.

Amaliy masq.

Tarbiyachi S undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (so-at, savat, san-diq, sab-zia-sal, at-las) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda S undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Skesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. Sharfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
2. So‘larni bog‘inlarga bo‘ling. *S* harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
3. Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- S harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bo‘g‘inli kartochkalar bilan qanday so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: *Mm* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiга kiruvchi *Mm* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *M* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *M* tovushini so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmiли alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *M* va kichik “*m*” harflari *M* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *M* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmiли kartochkalar, rasmiли alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Kichraytirib ayt”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘shib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Kichraytirib ayt”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi bolalarga koptokni uzatib, aytilgan so‘zni kichraytirib aytishni taklif etadi va bolalar javob berib tarbiyachiga uzatadilar. Na'muna: Mushuk- mushukcha, maymun-maymuncha, mayna-maynacha, mix-mixcha, mashina-mashinacha.....

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *M* tovushi bor mushuk rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi *M* tovushini takrorlab (m-m-m-mu-shuk) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.*M* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Mtovushini talaffuzidalablar kuchsiz birlashadi, tish qirralari orasidagi masofa va til holati “*M*” tovushidan keyin keladigan unli tovushlarga bog‘liq bo‘ladi, yumshoq tanglay pastga tushgan bo‘lib buning natijasida, havo burundan o‘tib ketadi, tovush boyamlari birikadi va tebranadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga Mundosh tovushlar sarasiga kirishi, chunki bu tovushni talaffuz qilinayotda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab lablar yumilib, so‘ngra ochilishini tushuntiradi.

Tarbiyachi “Mushuk qanday tovush chiqaradi?”, “Sigir qanday ovoz chiqaradi?” kabi savollar bilan bolalarning *M* tovushi haqidagi tasavvurlari oydinlashtiriladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *M* undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *M* tovushining talaffuzi o‘rgatadi.

Tarbiyalanuvchilar *M* tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. *M* tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng *M* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda *M* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

M harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *M* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa: “Buzoqlarni boq”

Tarbiyachi: bolalar hammamiz o‘rnimizdan turamiz. Sizlar buzoqlar bo‘lasiz. Guruh xonasining bu burchagi “o‘tloq”, mana bu burchagi “molxona” bo‘ladi. Siz

xona bo'ylab "o'tloqda" yurasiz. O'tloqdan molxonaga kelganda : Muu.. deb ma'raysizlar.O'yin shu tariqa davom etadi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *M* harfini doskada chizib ko'rsatib beradi. Tarbiyachi ko'rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho'plardan katta *M* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *M* harfi haqida quyidagi quvnoq she'rni aytib berishi mumkin.

Ikki do'st qo'l ushlashib
Do'stlik sulhi tuzildi,
Ularning o'rtasida
"**M**" harfi poydo bo'ldi.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *M* undosh ishtirok etgan bir necha so'zni bo'g'indarga bo'lib (may-mun, ma-shi-na,mak-ka,meh-mon, nim-cha,muz) aytadi. Bolalar aytilgan so'zdagi bo'g'inda *M* undosh tovush ishtirok etgan bo'lsa *M*kesma harfni baland ko'taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1."M" harfini yozishni o'rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So'zlarni bog'indarga bo'ling. "*M*" harfi o'rnini ko'k rangga bo'yang.
- 3.Harflarni qo'shib o'qiymiz.

Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- *M* harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So'zlarni bo'g'inga qanday bo'ldik?
- Bo'g'indili kartochkalar bilan qanday so'zlarni tuzdik?

Mavzu: *Hh* harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *Hh* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *H* tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *H* tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rganadilar;
- Bo'g'indidan so'z tuzishga o'rganadilar;

- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo`l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari yoki **rangli iplar, sho‘r xamir**, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “H” va kichik “h” harflari “H” tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, “H” tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Hammamiz birga harakatlanamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Bo‘g‘in tuz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar **mashq**: “Hammamiz birga harakatlanamiz”

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo‘lib turib olishlarini so‘raydi va bolalarga murojaat qilib “Hammamiz birga harakatlanamiz”, - deydi.

Baliq bo‘lib suzamiz,
Qushlar bo‘lib uchamiz.
Chiroqli o‘tiramiz,
Mashg‘ulni boshlaymiz.
Bolalar joylariga o‘tiradilar.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda H tovushi bor hassa rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi H tovushini takrorlab (h-h-h-has-sa) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to‘xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga H tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

*H*tovushini talaffuzidalablar bir oz ochiq, harakatsiz, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng qismi pastki kurak tishning orqasida turadi, havo tomoqdan qirilmay, yumshoq chiqadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *H*undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *H*tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *Htovushining* xususiyatlari haqida savol-javob o`tkaziladi. *H* tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng *H* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *H* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

H harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *H* kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Tarbiyachi so‘zlari	Barmoq harakatlari
Nina-nina-ninacham!	-Qo‘lning kaftlari bilakdan aylantiriladi
O‘tkir, epchil ninacham.	-O‘ng qo‘l barmoqlari, chap qo‘l barmoqlari bilan galma-gal ko‘rishadi, barmoq uchlarini bir-biriga tekkizib o‘ng va chap qo‘l jimjiloq barmog‘i o‘ng va chap qo‘l boshmaldog‘i o‘ng va chap qo‘l nomsiz barmog‘i o‘ng va chap qo‘l boshmaldog‘i o‘ng va chap qo‘l o‘rta barmoq o‘ng va chap qo‘l boshmaldog‘i o‘ng va chap qo‘l ko‘rsatkich barmoq o‘ng va chap qo‘l boshmaldog‘i -O‘ng va chap qo‘l ko‘rsatkich barmoqlari yuqoriga qaratilib, «Uqtirish, tanbeh berish» kabi harakat bajariladi
Qo‘limga kirib ketma	
Ko‘ylak tikib charchama!	-Boshmaldoq va jimjiloq barmoqlar o‘zgarmagan holda, qolgan uchta barmoq «qulf» bo‘lib ochilib- yopiladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma *H* harfini doskada quyidagicha chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plari yoki **rangli iplar**, **sho‘r xamirdan** katta *H* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *H* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Narvonchaga o‘xshatib
“H” harfini yozaman,
 Keyin unga o‘tirib
 Ashulalar aytaman.

Amaliy masq.

Tarbiyachi H undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (has-sa, hay-kal, han-da-lak, tim-soh, si-yoh) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *H* undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa *H*kesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1.*H* harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.

2.Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.

3. Yol oxiridagi rasmlarni aniqlang.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?

- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?

- *H* harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)

-So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?

-Bo‘g‘inli kartochkalar bilan qanday so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: *Ll* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *Ll* harf-tovushi bilan tanishadilar;

- *L* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;

- *L* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;

- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;

-Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;

- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;

- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho‘plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *L* va kichik *l* harflari *L* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, muz tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan

kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Savol-javob”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Savol-javob”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptok uloqtiradi va qanday fasl, ob-havo, kun so‘raydi. Ular javob berib tarbiyachiga koptokni qaytaradilar. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga joylariga o‘tirishni taklif etadi.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda L tovushi bor lola rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi L tovushini takrorlab (l-l-l-lo-la) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi. **Tarbiyachi L tovushini talaffuzini tushuntiradi.**

Tarbiyachiga eslatma.

Ltovushini talaffuzidalablar yengil kulgu holatida, tishlar ko‘rinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, til uchi alveolalar bilan birikadi, tilning orqa qismi bir oz ko‘tariladi, havo oqimi tilning yon tomonlaridan, til oralig‘idan va jag‘ yonlaridang o‘tadi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi. Havo esa og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan, tebranib, tovush hosil bo‘ladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *L* undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *L* tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *L* tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi.

L tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng *L* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda *L* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

L harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *L* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa **«Rubob chalamiz» o‘yini**

O'yining borishi: Tarbiyachi bolalarga: Hozir sizlar orkestr bo'lasizlar. Orkestrda ko'p musiqa asboblari chalinadi. Sizlar rubob chalasizlar, deb rubobni qanday ushlab chalish kerakligini ko'rsatadi (chap qo'li bilan huddi rubobning pardasini ushlayotgandek, o'ng qo'li bilan esa torni chertayotgandek harakat qilib "la-la-la", deb aytadi). Tarbiyachining ishorasi bilan hamma bolalar rubob chaladilar.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma *L* harfini doskada chizib ko'rsatib beradi. Tarbiyachi ko'rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta *L* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *L* harfi haqida quyidagi quvnoq she'rlarni aytib berishi mumkin.

Boltacha o'tin yorib
Kelib dam olar.
"L"ga o'xshar ekan, deb
Bolalar eslab yurar.

Laylak uchib keldi,
Janubdan ko'chib keldi.
Lal-la, la, la.
Tol boshiga in soldi,
Shu yerli bo'lib qoldi.
Lal-la, la, la.
Kelganlari soz bo'ldi,
Bu yoqda ham yozbo'ldi.
Lal-la, la, la.
Bolalar "Lal-la, la, la" naqoratiga
qo'shiladilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *L* undosh ishtirok etgan bir necha so'zni bo'g'indarga bo'lib (*lo-la, la-gan, lay-lak tul-ki, i-lon*) aytadi. Bolalar aytilgan so'zdagi bo'g'inda *L* undosh tovush ishtirok etgan bo'lsa Lkesma harfni baland ko'taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. "L" harfini yozishni o'rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 2. Rasmlarni nomlang. So'zlarni bog'inlarga bo'ling. *L* harfi o'rmini ko'k rangga bo'yang.
- Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yozdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?

- *L* harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bo‘g‘inli kartochkalar bilan qanday so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: *Bb* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *Bb* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *B* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *B* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *B* va kichik “*b*” harflari *B*tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *B* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar, har bir bolaga yetarli rangli iplar yoki sho‘r xamir, bo‘g‘inli kubiklar: (bo, ba, bi, bu, no, ab, ib, ob)

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “**Savol-javob**”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Savol-javob”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptoq uloqtiradi va qanday fasl, ob-havo, kun so‘raydi. Ular javob berib tarbiyachiga koptoqni qaytaradilar. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga joylariga o‘tirishni taklif etadi.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *B* tovushi bor **Ba-liq** rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi *B* tovushini takrorlab (**b-b-b-ba-liq**) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to‘xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda *B* tovushini xo‘r bo‘lib aytadilar. U tovushi undosh tovush ekanligi, *B*tovushini cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmasligi tushuntiriladi.

Tarbiyachiga eslatma.

*B*tovushini talaffuzidalablar tinch holatda birikkan bo‘lib, havo chiqishi bilan birdaniga ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati **B** tovushidan keyin keladigan unli tovushga bog‘liq bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi. Havo oqimi og‘izdan o‘tadi, tovush boylamlari birikkan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *B* tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. *B* tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng *B* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *B* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

B harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *B* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o`qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Bolalar she'r so‘zlariga mos harakat qiladilar.

Oyog‘imiz taq – taq – taq,
Qo‘limiz chapak – chapak,
Boshimiz sarak – Sarak.

Qo‘limizni ko‘tardik,
Sekingina tushirdik.
Endi ehtiyyot bo‘lib,
Joyimizda aylandik.
Qo‘lni yonga tushirdik,
Doira bo‘ylab yugurdik.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma *B* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplar yoki sho‘r xamirdan katta *B* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *B* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Baliq suvda suzadi,
Go‘shti maza bo‘ladi.
Bodring, banan so‘zлари
“**B**”harfidan boshlanadi.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *B* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (bo‘-ri, ba-liq, bi-no, bol-ta, be-shik, baq-la-jon, ru-bob, qur-ba-qa, dor-boz, kitob, lab) aytadi.

Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda B undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Bkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.B harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So‘zlarni bog’inlarga bo’ling. B harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
- 3.Rasm nomlaridan B harfini toping. Rasmni mos harf bilan birlashtiring.
4. Rasmga qarab gaplar tuzing.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- B harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bo‘g‘inli kartochkalar bilan qanday so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: Yy harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi Yy harf-tovushi bilan tanishadilar;
- Y tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- Y tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- kattalarga salom berishga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar,rasmli alifbo, kitob maketi, sanoq cho‘plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh Y va kichik y harflari Y tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, Y tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmlı kartochkalar, rasmlı alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar, rasmlı rebuslar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “*Bersang salom*”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “*Bersang salom*”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so’raydi. Tarbiyachi bolalarga salom berish haqida she’r aytadi.

*Yo ‘l ustida uchragan
Kishiga bersang salom.
Alik olib avvali, so ‘ngra
Der: “Raxmat, bolam”.*

She’r bilan mashg’ulot boshlab olinadi.

Asosiy qism: 20-25 daqiqa.

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda Y tovushi bor yo’lbars rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (y-y-y-yo’l-bars) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so’raydi. Tarbiyachi Y tovushini talaffuzini tushuntiradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ytovushini talaffuzidalablar tishlarga yaqinlashgan bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo‘ladi, til uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi: tilning yon qirralari kurak tishlariga ichki tomondan siqilgan bo‘ladi, til kuragining o‘rtasi qismi qattiq tanglayga ko‘tariladi va ikkalasining orasida tirqish hosil bo‘lib, o‘pkadan chiqayotgan havo shu tirqishdan o‘tadi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi. Chiqayotgan havo og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga Y undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, Ytovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan Ytovushining xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. Y tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng Y harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda Y harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Y harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga Y kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

Tarbiyachining so‘zлари	Bolalar harakatlari
--------------------------------	----------------------------

<p>Uycha baland bo‘lsin desangiz, Uycha mahkam bo‘lsin desangiz. Mixlarni tekis qoqqin O‘nga to‘q-to‘q-to‘q, Chapga to‘q-to‘q-to‘q, Oldinga to‘q-to‘q-to‘q,</p>	<p>Bolalar chordana qurib o‘tiradilar Qo‘llarining kaftlari bilan tizzalariga urishadi; musht bilan tizzalariga urishadi; Ikki qo‘l mushti birbiriga uriladi; O‘ng qo‘l mushti bilan o‘ng tarafga yerga uradilar; So‘ng chap tarafga Ikki qo‘l mushti bilan oldilarida «mix qoqishadi»</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma *Y* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta *Y* harfini yasaydilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *Y* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (*yo'l-bars, yo'-lak, yo'l, oy, uy*) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *Y* undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa *Y*kesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

1.“*Y*” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.

2.Berilgan gapda nechta“*Y*” harfi bor?

3.Harflarni qo‘sib o‘qiymiz.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- *Y* harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni bo‘g‘inga qanday bo‘ldik?
- Bo‘g‘inli kartochkalar bilan qanday so‘zlarni tuzdik?

Mavzu: *Kk* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhibiga kiruvchi *Kk* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *K* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;

- *K* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *K* va kichik *k* harflari *K* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *K* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so‘raydi va .

Bolalardan bir-birilarini qo‘llarini ushlab, bir-birlariga qarab ezgu so‘zlarni aytishni so‘raydi. (bolalar bir-biriga ezgu so‘zlarini aytadilar: sen yaxshisan, sen quvnoqsan, sen tirishqoqsan, sen ozodasan, sen zo‘r rasm chizasan....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *K* tovushi bor kitob rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (k-k-k-ki-tob) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar orasi bir oz ochiq, *K* tovushi unli “**a**”, “**o**”, “**u**”, “**i**” tovushlari bilan talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo‘ladi va pastki kurak tishlarga bir oz yetmay turadi. *K* tovushi og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi.

Tarbiyachi *K* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ktovushini talaffuzidalablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar orasi bir oz ochiq, *K* tovushi unli “**a**”, “**o**”, “**u**”, “**i**” tovushlari bilan talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo‘ladi va pastki kurak tishlarga bir oz yetmay turadi. *K* tovushi og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **K** undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, **K** tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *K* tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. **K** tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng **K** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda **K** harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

K harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga **K** kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Nima qanday qichqiradi?” o‘yini

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarga murojaat qiladi: tasavvur qiling biz sayrda yuribmiz. Chumchuqlarning uzum cho‘qishyapganlarini ko‘rib qoldik. Chumchuqlarni qanday haydaymiz (“Kish-kish”). Sayrda yurib kakkak qushi sayraganini eshitib qoldik. Kakku qanday sayraydi? (“Kak-ku”, “kak-ku”)

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma **K** harfini doskada chizib ko‘rsatib beradi. Tarbiyachi ko‘rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta **K** harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga **K** harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Bir qo‘lini ko‘tarib,
Oyog‘in kerib turar,
-Kimsan o‘zing?-deb so‘rasak
“**K**” bo‘laman-deb aytar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi **K** undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (kitob,kaptar, kak-ku,ka-mon, ka-lit, ki-yik, ka-lit) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda **K** undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Kkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.“**K**” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.Berilgan sifatga mos rasmlarni birlashtirihg.(Tarbiyachi sifatlarni o‘qib brradi).
3. So‘zlardan foydalanim rasmliga qarab kichik hikoya tuzing.
Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- K harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)

Mavzu:*Rr* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *Rr* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *R* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- R* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- bolalarining kelajakda o‘z oldiga maqsadqo‘yish qobiliyati shakllantiriladi;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “R” va kichik “r” harflari “R” tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, “R” tovushi ishtirot etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Men nimani yaxshi ko‘raman”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: ta’limiy o‘yin “Rasmni joyiga qo‘y”, “So‘zni top”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuz” o‘yini.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Men nimani yaxshi ko‘raman”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so‘raydi. Bolalar bir-birlariga nimani yaxshi ko‘rishlarini aytadilar. (men rasm chizishni yaxshi ko‘raman, men raqsga tushishni yaxshi ko‘raman, musiqa tinglashni yaxshi ko‘raman, men she‘r yodlashni yaxshi ko‘raman, men ertaklarni aytib berishni yaxshi ko‘raman.....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **R** tovushi bor **randa** rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi R tovushini takrorlab (**r-r-r-ran-da**) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi. Tarbiyachi R tovushini talaffuzini tushuntiradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Rtovushini talaffuzidalablar sal ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, ammo tegmagan, til uchi alveolalarga ko‘tariladi va titraydi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi, havo oqimi esa og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan, tebranib tovush hosil bo‘ladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga R undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, R tovushining talaffuzini o‘rgatadi. R tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng R harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda R harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

R harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga R kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Samolyot” o‘yini

Tarbiyachi: Bolalar, hammamiz o‘rnimizdan turamiz. Hozir samolyot o‘yinini o‘ynaymiz. Hammamiz samalyotning motorini “R”-“R”-“R” deb talaffuz etamiz. Va qo‘llarimiz bilan matorning harakatini ko‘rsatamiz. Matorni yurgazdik va samolyot baland- band uchib ketdi: “L”-“L”-“L” deb bolalar qo‘llarini qanot qilib xona bo‘ylab uchib yuradilar.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma R harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta R harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga R harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Bir qo‘lni belga qo‘yib,
Bir oyoqni tiragin,
“R” ga o‘xshab qolding sen
Bir oynaga qaragin.

Amaliy masq.

Tarbiyachi R undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (rom, a-ri, ar-ra, Bo-tir, ru-bob, ra-ke-ta, tur-na, bo‘-ri) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda R undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Rkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

1.“R” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.

2.Krosvord echish. Berilgan rasmlarning nomlaridagi harflarni mos katakga joylashtiring. Hosil bo'lgan so'zni o'qing. Yashiringan so'zni top.
3. Bo'g'lnarni birlashtirib o'qi.

Mavzu *Pp* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhibi kiruvchi *Pp* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *P* tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *P* tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rganadilar;
- Bo'g'lnardan so'z tuzishga o'rganadilar;
- do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

"Laylakvoy" media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh "P" va kichik "p" harflari "**P**" tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, "**P**" tovushi ishtirok etgan so'zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so'zlar yozilgan kartochkalar, so'zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, "Harflarni qo'shib o'qish" mavzusida plakat, bo'g'in andozali kartochkalar.

Mashg'ulot metodi: muzyorar mashqi "Savol-javob", analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta'limiy o'yinlar: "Harflarni qo'shib o'qiyimiz", "Zanjir", "Bo'g'lnardan so'z tuzing"

Mashg'ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: "Savol-javob"

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptok uloqtiradi va qanday fasl, ob-havo, kun so'raydi. Ular javob berib pedagogga koptokni qaytaradilar. Shundan so'ng pedagog bolalarga joylariga o'tirishni taklif etadi.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

"Laylakvoy" media mahsulotidan ekranda *P* tovushi bor piyola rasmi ko'rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so'zni aytadilar. Tarbiyachi *P* tovushini takrorlab (p-p-p-pi-yo-la) so'zini aytadi va qaysi tovushga to'xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so'raydi. Tarbiyachi *P* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ptovushini talaffuzidaavval lablar tinch jipslashgan bo‘ladi, so‘ngra havoning tez yorib chiqishi natijasida ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati P tovushidan keyin keladigan unli tovushlarga bog‘liq bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan bo‘lib, tomoqning orqa devoriga siqilgan va burun yo‘llarini yopib turadi, natijada o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi og‘izdan o‘tib ketadi, tovush bog‘lamlari ochiq bo‘lib, tovush jaranglamaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *P* undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, Ptovushining talaffuzini o‘rgatadi. *P* tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng P harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda P harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi

P harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga P kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Tasmali harflar”

Bolalar gilamchaga turli xil tasmalardan harflarni yasaydilar. Tarbiyachi bolalar tomonidan eng chiroqli va to‘g‘ri tasvirlangan harflarni tanlaydi va bolalarni rahbatlantiradi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma P harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta P harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga P harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Parpi poezdda kelar,
Qo‘li esa belida.
Vagonda to‘la pilla,
Ishonmasang, qara-da.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *P* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (pax-ta, pul, pil-la, po’-yzd, ka-pa-lak, pi-yo-la) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *P* undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

- 1.“P” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So‘zlarni bog’inlarga bo’ling. “P” harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
- 3.Harflarni qo’shib o’qiymiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarining tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- P harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- So‘zlarni necha bo‘g‘inga bo‘ldik?

Mavzu: O‘o‘ harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- unli harflar guruhiga kiruvchi **O‘o‘** harf-tovushi bilan tanishadilar;
- **O‘** tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- **O‘** tovushini so‘zning boshida, o’rtasida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo’shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “**O‘**” va kichik “**o‘**” harflari “**O‘**” tovushi bor suratlar. Unli tovush belgisi bor kubik, “**O‘**” tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo’shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bolajonlar, bormisiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo’shib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bolajonlar, bormisiz”

Tarbiyachi: Bolajonlar, barchangiz bormisiz

Mashg‘ulot uchun tayyormisiz.

Bolalar: Mana bizlar hamamiz,

Zukko o‘g‘il qizlarmiz.
Mashg‘ulotga tayyormiz
So‘ngra tarbiyachi bolalardan o‘z joylarini egallab olishlarini so‘raydi.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **O‘** tovushi bor o‘rdak rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi **O‘** tovushini cho`zib (o‘-o‘-o‘-r-dak) so`zini aytadi va qaysi tovushga cho`zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi **O‘** tovushini talaffuzini tushuntiradi.

Tarbiyachiga eslatma.


O‘ tovushini talaffuzidalablar oldinga naychaga o‘xshab chiqqan, tishlar birlashmagan bo‘ladi, va ular lablar bilan bekitiladi, tilning orqa qismi yumshoq tanglaygacha ko‘tarilgan, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi og‘iz orqali o‘tadi, tovush boyamlari birikib va tebranib ovoz hosil bo‘ladi.

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda “O‘” tovushini xo‘r bo‘lib aytadilar. “O‘” tovushi unli tovush ekanligi, u og‘izda to‘sinqqa uchramayotganini, qancha cho‘zsa cho‘zilishi aytib mashq qilinadi.

Tarbiyalanuvchilar **O‘** tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi. **O‘** tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng **O‘** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda **O‘** harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

O‘ harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga **O‘** kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.



Quvnoq daqiqa.

Daraxtlar

Salom, ey, yashil o‘rmon,
Sen ertaklarga makon!

Chap va o‘ng qo‘llar kaftini barmoqlarni keng ochgan holda o‘ziga qaratib ko‘tariladi. Barmoqlar ochiq holda qo‘llar ikki yonga uzatilib, silkitiladi

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma **O‘** harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta **O‘** harfini

yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga **O'** harfi haqida quyidagi quvnoq she'rni aytib berishi mumkin.

O'rgimchak inida yotdi,
10 daqiqada xurrak otdi.

Amaliy masq.

Tarbiyachi **O'** unli ishtirok etgan bir necha so'zni bo'g'lnlarga bo'lib (o'n, o'-rik, o'-tin, o'r-mon, bo'-ri, to'-ti) aytadi. Bolalar aytilgan so'zdagi bo'g'inda **O'** unli tovush ishtirok etgan bo'lsa **O'** kesma harfni baland ko'taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.“**O”** harfini yozishni o'rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So'zlarni bog'lnlarga bo'ling. “**O”** harfi o'mini qizil rangga bo'yang.
- 3.Harflarni qo'shib o'qiyimiz.
4. Bo'g'in tuzish va uni o'qish.
5. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. So'zlarning tagiga bo'g'in andozasini chizish.

Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- **O'** harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Necha bo'g'inli so'zlar tuzdik?

Mavzu: Dd harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *Dd* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *D* tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *D* tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rganadilar;
- Bo'g'lnlardan so'z tuzishga o'rganadilar;
- do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmlı alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “D” va kichik “d” harflari “D” tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, “D” tovushi ishtirok etgan so'zlarga mos rasmlı kartochkalar, rasmlı alifbo,

so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Erkalatib ayt”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘shib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Erkalatib ayt”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptok uloqtiradi va bolalarga so‘zlarni kichraytirish – erkalatish shaklida nomlashni taklif etadi. Daftar-daftarcha, divan-divancha, do‘ppi-do‘ppicha, dutor-dutorcha, doira-doiracha, ...

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda D tovushi bor do‘ppi rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (d-d-d-do`p-pi) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi. Tarbiyachi *D* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Dlablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin jiplashmagan, “**D**” tovushi unli “**a**”, “**i**”, “**o**”, “**u**” tovushlari bilan qo‘shib talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga yoki alveolalarga tiralib turadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **Dundosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *D* tovushining talaffuzini o‘rgatadi.** *D* tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng *D* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *D* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

D harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *D* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi.Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Kapalaklar”

O‘yinning mazmuni: Bolalar stulchalarda o‘tirishadi.

Tarbiyachi bolalarga: «Bolalar qaranglar-a, qanday chiroyli kapalaklar; ko‘k, sariq, qizil!» Ular xuddi jonli kapalaklarga o‘xshaydi. Ko‘raylikchi, ular ucha oladilarimi?

(ularni puflaydi). Qaranglar, uchib ketishdi. Qani sizlar ham puflab ko‘ringlar-chi. Kimniki uzoqqa uchar ekan?

Tarbiyachi har bir kapalakning qarshisiga bittadan bolani turg‘azib qo‘yadi, bolalar kapalakka qarab puflaydilar.

O‘yin bir necha marotaba takrorlanadi. Bunda bolalarning to‘g‘ri turishiga, nafas olganlarida yelkalarining ko‘tarilmasligiga ahamiyat berib borish kerak. Bolalar bir nafas chiqarishda, havo olmasdan turib, biron narsani puflashlari kerak. Lablar biroz cho‘chchaygan bo‘ladi. Har bir bola biror narsani 10 soniyadan (orasidan tanaffus qilish bilan) ortiq puflamasligi kerak

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma D harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta D harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga D harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Oyijonim olmani-
To‘rt bo‘lakka bo‘ldilar:
Bir bo‘lagin ko‘rsatib,
“D”ga o‘xshar, dedilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi D undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (daftar, do‘ppi, don, deraza, dutor, doira, do-ri, da-la) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda D undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa D harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.“D” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. “D” harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
- 3.Harflarni qo‘sib o‘qiymiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish: Doniyor dutor chaldi.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- D harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Ee harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

Maqsad:tarbiyalanuvchilar –

- unli harflar guruhiga kiruvchi **E** e harf-tovushi bilan tanishadilar;
- “**E**” tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- “**E**” tovushini so‘zning boshida, o’rtasida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, rangli qalam, kitob maketi, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, unli tovush belgisi bor kubik, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, ruchka yoki flomasterlar.

Mashg‘ulot metodi: Muzyorar mashqi: “Nima qilish kerakligini o`ylab top” analiz-sintez, suhbat, AKT, nafas mashqi, ta’limiy o‘yin “Ortiqchasini top”, “Zanjir”, amaliy ish.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Nima qilish kerakligini o`ylab top?”

Bolalar yarim doira shaklida turadilar yoki o`tiradilar. Har bir bolaning qo’lida 2 tadan bayroqcha bo’ladi. Tarbiyachi doirani baland chalganda bolalar qo’llarini baland ko`tarib, bayroqchalarni hilpillatadilar. Tarbiyachi doirani past chalganda bolalar bayroqchani pastga tushirishadi. Bolalar harakatlarni to’g’ri bajarayotganini kuzatish kerak.

2. Asosiy qism: 20-25 daqiqa.

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda **E** tovushi bor echki rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar.

Tarbiyachi **E** tovushini cho`zib (e-e-e-ech-ki) aytadi va qaysi tovushni cho`zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachi **E** tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Etovushini talaffuzidalablar jilmaygan(kulgan), tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar ko‘rinib turgan, tilning keng uchi pastki tish qirralariga tegib turgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan, burun yo‘llarini yopib turgan hamda havo oqimi og‘iz orqali o‘tib ketadigan, tovush bog‘lamlari birikkan, tebranib tovush hosil qiladigan holatda bo‘lib turishiga e’tibor berish kerak.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **E** unli tovush ekani, unli tovush undosh tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, **E** tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan Etovushining xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda *E* tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng *E* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *E* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Tarbiyachi bolalarga *E* tovushi bilan boshlanadigan so‘zlarni rasmi li kartochka orqali ko`rsatadi va birga talaffuz qiladi.

E harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *E* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

“So‘z top” o‘yini. Tarbiyachi bolalarni 2 guruhga bo‘ladi: birinchi guruuhga “*E*” tovushi bilan boshlanadigan so‘zlar topish, 2- guruuhga “*E*” tovushi so‘z o‘rtasida kelgan so‘zlar topish aytiladi, qaysi guruh o‘ylanib, belgilangan muddatda so‘z topa olmasa o‘yindan chiqadi. O‘yinni oxirigacha davom ettirgan guruh g‘olib sanaladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *E* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta *E* harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga *E* harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Hovlidagi narvoncha
Birdan sinib qolibdi.
Bitta ustuni tushib
“*E*” harfi bo‘p qolibdi

Amaliy masq.

Tarbiyachi *E* unli ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘in larga bo‘lib (*echki, eshak, etik, elak, etak, ekin*) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *E* unli tovush ishtirok etgan bo‘lsa Ekesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

- 1.“*E*” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 - 2.So‘zlarni bog‘in larga bo‘ling. “*E*” harfi o‘rnini qizil rangga bo‘yang.
 - 3.Harflarni qo‘sib o‘qiymiz.
 4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
 5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.
- Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- E harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Jj harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- undosh harflar guruhiba kiruvchi Jj harf-tovushi bilan tanishadilar;
- J tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- J tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- bolalarning kelajakda o’z oldiga maqsadqo‘yish qobiliyati shakllantiriladi;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmiy alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “J” va kichik “j” harflari “J” tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, “J” tovushi ishtiroy etgan so‘zlarga mos rasmiy kartochkalar, rasmiy alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Men nimani yaxshi ko‘raman”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Men nimani yaxshi ko‘raman”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so‘raydi. Bolalar bir-birlariga nimani yaxshi ko‘rishlarini aytadilar. (men rasm chizishni yaxshi ko‘raman, men raqsga tushishni yaxshi ko‘raman, musiqa tinglashni yaxshi ko‘raman, men she‘r yodlashni yaxshi ko‘raman, men ertaklarni aytib berishni yaxshi ko‘raman.....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda J tovushi bor jo‘ja rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (j-j-j-jo‘-ja) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachi J tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Jtovushini talaffuzida lablar oldinga lablar aylana shaklida va oldinga bir oz oldinga chiqqan, tishlar bir- biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi alveolaga yoki qattiq tanglayning oldingi qirrasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ular o‘rtasida tirqish(bo‘shliq)hosil bo‘ladi, tilning o‘rtasidan iliq havo oqimi o‘tadi. Buni his etish uchun qo‘l kaftining orqa tomonini og‘iz oldiga olib kelish kerak, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan bo‘lib, tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga J undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, J tovushining talaffuzini o‘rgatadi. J tovushli so`zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng J harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda J harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

J harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga J kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Bolalarga “Qo‘ngizlar”o‘yini taklif etiladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma J harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta J harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga J harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

-Soyabonning bandini
Kim sindirdi, ayt tezroq?
-Yo‘q, sira unday emas,
“J” bu-eslab qol, o‘rtoq

Amaliy masq.

Tarbiyachi J undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (jo‘-ja, jib-la-ji-bon, ja-la, joy, jiy-da, baq-la-jon, jaj-ji, jo‘-ja-xo‘-roz) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda J undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa J harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.“J” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So‘zlarni bog’inlarga bo’ling. “J” harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
- 3.Harflarni qo’shib o’qiyimiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- J harfinining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?
- Qaysi so‘zdan gap tuzdik?

Mavzu: *Qq* harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiга kiruvchi *Qq* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *Q* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *Q* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo’shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmiy alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “Q” va kichik “q” harflari *Q* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *Q* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmiy kartochkalar, rasmiy alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo’shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Savol-javob”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “O‘rnini top”, “Harfni joyla”, “Quvnoq rebus”.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Savol-javob”

-bolajonlar o‘tgan mashg‘ulotda bizlar qaysi harf bilan tanishgan edik?

-qanday so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ldik? Qanday gaplar tuzdik?

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda Q tovushi bor qovun rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (q-q-q-qo-vun) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachi *Q* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

*Qtovushini talaffuzida bolaga **Q** tovushini artikulyasion holatini egallash va shu holatda til o‘zagi tebranib, o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi portillab, tebranib hosil qilinishi tushuntiriladi.*

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **Q** undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *Qtovushining talaffuzini o‘rgatadi.* *Q* tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng *Q* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *Q* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Q harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *Q* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“O‘rinini top” o‘yini

O‘yinning mazmuni: bolajonlar, hozir men sizlarga turli rasmli kartochkalar ko‘rsataman va nomlarini aytaman. Sizlar ana shu so‘zlarda “*Q*” tovushi qaerda joylashganini topasizlar. (tarbiyachi bu tovushni baland talaffuz etadi). Bolalar tarbiyachiga taqlid qilib takrorlaydilar va “*Q*” tovushi qaerda joylashganini topadilar.

-qovun, qaychi, qalam (so‘z boshida)

-arxon, dehqon, sichqon (so‘z o‘rtasida)

-yostiq, baliq, ayiq (so‘z ohirida)

Keling siz bilan ona tovuqqa taqlid qilib, ona tovuqdek “Qo-qolaymiz”. Birgalikda qo-qo-qo

Amaliy ish.

1.Tarbiyachi bolalarga katta bosma Q harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta Q harfini yasaydilar.

2.Bolalar bilan amaliy mashq “Eslab qoling va aytib bering”

Tarbiyachi bolalarga qofiyadosh so‘zlarni aytadi, bolalar takrorlaydilar.

Qor-tor, qo‘y-so‘y, qosh-tosh, qayiq- ayiq, o‘roq- so‘roq, qoya- soya

Amaliy masq.

Tarbiyachi Q undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (qovun,qovoq, qush, qosh, qarg‘a) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda Q undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Qkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.“Q” harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So‘zlarni bog’inlarga bo‘ling. “Q” harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
- 3.Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish.So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.

7. Tez aytish. Yod oling.

Qo‘s qo‘lqop, qo‘s shovi ham bo‘s sh qo‘lqop.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- Q harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: SH sh harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiga kiruvchi SH, sh harf-tovushi bilan tanishadilar;
- SH tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- SH tovushini so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;

- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *SH* va kichik “sh” harflari *SH* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *SH* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Kim yaxshi kuladi”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Kim yaxshi quladi?” “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Kim yaxshi kuladi”

Bolalar yarim doira holda o‘tiradilar. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi. “Biz xursand bo‘lganimizda kulamiz”, mana bunday (o‘zi kulib ko‘rsatadi). Biz juda xursand bo‘lib kulganimizda tishlarimiz ko‘rinadi. Hozir bizga bo‘g‘irsoq bilan qo‘g‘irchoq mehmonga keladi. Hammamiz hursand va kulib ularni kutib olamiz. Bolalar tishlarini ko‘rsatib kuladilar. Endi mehmonlarimiz ketdi. Biz hafa bo‘ldik. Tishlarimizni bekitamiz. Mehmonlarimiz yana keldi. Kulamiz. Shu tariqa mashqlar bir necha marta takrorlanadi. Lab harakatlarining aniq bajarilishi kuzatib boriladi.

II. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *SH* tovushi bor sholg‘om rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi *Sh* tovushini takrorlab (sh-sh-sh-shol-g‘om) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to‘xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi *Sh* tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Shtovushini talaffuzidalablar aylana shaklida va oldinga bir oz chiqqan, tishlar bir- biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi qattiq tanlayning oldingi qirrasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ular oralig‘ida tirqish hosil bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devorga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi. Buning natijasida havo oqimi og‘iz orqali o‘tib ketadi, tovush bog‘lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

***Sh* undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, *Sh* tovushining talaffuzini o‘rgatadi. Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda *SH* tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi.** Shundan so‘ng *SH* harfi

“Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *SH* harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

SH harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga *SH* kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi.Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

Kuchukcha

Soqchiman uyingizga, Qo‘riqchi qo‘yingizga. Kuchukman men vafodor, Hamma mendan minnatdor. Xursand qilsangiz kerak, Bo‘lmasa, tashlang suyak.	Barmoqlar zich, bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarish . Jimjiloq yuqoriga-pastga harakatlantiradi
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma *SH* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta *SH* harfini yasaydilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *SH* undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (sholg’om, shaftoli, sher, shohmot, toshbaqa, Toshkent, osh, bosh, qish, kurash) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda *SH* undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa SHkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. *SH* harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
2. So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. *SH* harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
3. Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Relaksaksiya “O‘rmonda”

Tarbiyachi: -Bolajonlar endi ko‘zlarimizni yumamizva o‘rmonga borganimizni tasavvur qilamiz. Tasavvur qiling biz sizlar bilan o‘rmonga borib qoldik. O‘rmon juda sokin, shu payt mayin shaboda esib, daraxtlarning shoxlarini tebrata boshladi. O‘rmon bir zumda shivvilay boshladi sh-sh-sh-sh. Daraxtlarning shoxchalari, bargchalari shabadada qanday shovullaydi? Sh-sh-sh-sh..... shamol tindi va o‘rmon yana sokin.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- SH harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: CH ch harf-tovushi bilan

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi *CHch* harf-tovushi bilan tanishadilar;
- *CH* tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- *CH* tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh *CH* va kichik “ch” harflari *CH* tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, *CH* tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyamiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo‘lib turishlarini so‘raydi va hamma bolalar bir-birlarini qo‘llarini ushlab, bir-biriga qarab yaxshi tilaklarni aytishlarini aytadi. (bolalar bir-biriga yaxshi tilaklarini aytadilar: sen yaxshisan, sen donosan, sen chiroylisan, sen jasursan....).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa.

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda *CH* tovushi bor choynak rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi *CH* tovushini takrorlab (*Ch-ch-ch-choy-nak*) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib

aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi. Tarbiyachi *CH* tovushini talaffuzini tushuntiradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Chtovushini talaffuzidalablar aylana shaklida va oldinga bir oz oldinga chiqqan, tishlar bir- biriga jipslashgan, til uchi, til kuragi yuqoridagi tishlar yoki alveolalar bilan birikadi. Bu birikuv sekin-asta ular o`rtasidagi tirqishga aylanadi, til o`rtasidan qisqa havo oqimi o`tadi. Buni his etish uchun qo`l kaftini og`iz oldiga olib kelish kerak, yumshoq tanglay ko`tarilgan va tomoqning orqa devoriga qisilgan bo`lib, burun yo`llarini yopib qo`yadi, havo esa og`iz orqali o`tadi, tovushning bog`lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga *Ch* undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo`g`in hosil qilishi haqida tushuntirib, *Ch* tovushining talaffuzini o`rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *Ch* tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. *Ch* tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng *Ch* harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda *Ch* harfini shaklini eslab qolishlariga alohida e`tibor beriladi.

CH harfi kitobga joylab qo`yiladi. (kitob maketiga *CH* kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarninguch xususiyati: yozilishi, ko`rish mumkinligi va ularni o`qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o`qilishi, yozilishi va ularni ko`rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

“Poyezd” o`yini.

Bolalar poezdning vagonchalari bo`lishadi. Tarbiyachining poezd yurib ketdi deyishi bilan bolalar qo`llarini tirsakdan bukib, aylanma harakat qilib, birlarining ketlarida Chux-chux, chux-chux, chux, deb yuradilar.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma *CH* harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta *CH* harfini yasaydilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi *CH* undosh ishtirok etgan bir necha so`zni bo`g`inlarga bo`lib (*Chaman, Cha-ros, choy, chol, cha-na, cho'-mich, chu-mo-li*) aytadi. Bolalar aytilgan so`zdagi bo`g`inda *CH* undosh tovush ishtirok etgan bo`lsa *CH* harfni baland ko`taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

- 1.“*CH*” harfini yozishni o`rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
- 2.So`zlarni bog`inlarga bo`ling. “*CH*” harfi o`rnini ko`k rangga bo`yang.
- 3.Harflarni qo`shib o`qiymiz.

4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlearning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- CH harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Gg harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhibi kiruvchi Gg harf-tovushi bilan tanishadilar;
- G tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- G tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmiy alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh “G” va kichik “g” harflari “G” tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, “G” tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmiy kartochkalar, rasmiy alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyamiz”, “Kerakligini top”, “O‘xshashini top”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bir-birimizni kayfiyatimizni ko‘taramiz”

Salomlashib bolalar diqqatini mashg‘ulotga qaratish. Bolalar qanday kayfiyatda kelganliklarini va hozir ularning kayfiyatlarini qanday ekanliklarini so‘rab olish.

2. Asosiy qism: **20 daqiqa**

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda G tovushi bor gilos rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (g-g-g-gi-los) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

TarbiyachiG tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Gtovushini talaffuzidalablar bir oz ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo‘ladi, ammo birikmaydi, **G** tovushi unli **a, o, u, i** tovushlaribilan birikib, talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo‘ladi va pastki kurak tishlaridan itarilgan, til kuragini orqa qismi yumshoq tanglay bilan birikadi. **G** tovushi **ya, ye, yo**, unli tovushlari birikmasi bilan talaffuz etilganda, til uchi pastga tushadi va pastki kurak tishlarga tegib turadi, til kuragi esa qattiq tanglayga bosiladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘ladi, buning natijasida burun yo‘llari yopilib, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘izdan o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga **G** undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, Gtovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarbilan **Gtovushining xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkazadi.** **G** tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng **G** harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda **G** harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

G harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga K kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“O‘xhashini top”.

O‘yin mazmuni: yerga turli xil harflar chizilgan. Bolalarning qo‘llariga xuddi shu harflar tasvirlangan karton qirqimlari beriladi. Tarbiyachi bolalarga qo‘llaridagi harfning o‘xhashini yerdagi tasvirdan topib ustiga qo‘yishlarini aytadi.

O‘yin tarbiyachining ishorasi bilan boshlanadi. O‘yin barcha bolalar qo‘llaridagi harfning joyini topgunlariga qadar davom etadi. So‘ng harflar o‘zaro almashtiriladi. Agar bolalar xohlasa o‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma G harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta G harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga G harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Patnis ushlab yuraradi,
Oymomoxon qo‘lida,
Patnis bo‘shki, desak ham
Davom etar yo‘lida.
Eh, bilmabman, attang-a,
“G” harfi-ku bu, do‘stlar,
Paydo bo‘lsa yulduzcha,
“G” ga aylanib qolar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi G undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (gi-los, gul, gul-xan, gugurt, il-gak, tug-ma, Ni-go-ra,barg, yeng, bod-ring) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda G undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa G harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.G harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 - 2.So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. G harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
 - 3.Harflarni qo‘sib o‘qiymiz.
 4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
 5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.
- Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- G harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: “ng” harf- birikmasi bilan tanishtirish

Maqsad:

- undosh harflar guruhiга kiruvchi ng harf-tovushi bilan tanishadilar;

- ng** tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- ng** tovushini so‘zning oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, ng harf birikmasi tovushi bor suratlar. ng tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Hammamiz birga harakatlanamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘shib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Hammamiz birga harakatlanamiz”

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo‘lib turib olishlarini so‘raydi va “Hammamiz birga harakatlanamiz”, - deydi.

Assalom
 Har kun tongda turaman,
 Dildan yayrab yuraman.
 Yayrab desam assalom,
 Zavq olaman bir olam.
 Salom so‘zi muqaddas,
 Salom o‘zi muqaddas.
 Tog‘a, xola, ammaga,
 Salom-deyman hammaga.
 Hamma dildan salom der
 Rahmat derman bolam der.

Tarbiyachi: Bolajonlar ertalab uyqudan turgandan so‘ng oila a’zolarimizga, kun davomida kattalarni ko‘rganda albatta salom berish bu odobdandir.

II. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda ng harf birikmasi tovushi bor bodring rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab (bod-ring-ng-ng-ng) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

“Laylakvoy” media mahsulotidan ng harf birikmasi ko`rsatiladi. Bunda ng harf birikmasining shaklini eslab qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

ng harf birikmasi kitobga joylab qo'yiladi. (kitob maketiga ng harf birikmasi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytildi.Xulosada harflar o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Bodring” she'rini aytish.

Bodring diring-diring
Bog'imizga kirib turing
Bog'imizga kirganda
Palagim bosmay yuring
Men ham sizday bolaman
Qovoq solib olaman
Palagimni bosangiz
Achchiq bo'lib qolaman.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma ng harf birikmasi doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan ng harf birikmasi yasaydilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi ng harf birikmasi ishtirok etgan bir necha so'zni bo'g'inqalda bo'lib (bodring, tong, rang, tanga, otang, onang) aytadi. Bolalar aytigan so'zdagi bo'g'inda ng harf birikmasi ishtirok etgan bo'lsa ng harf birikmasini baland ko'taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. ng harf birikmasi yozishni o'rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 2. So'zlarni bog'inqalda bo'ling. ng harf birikmasi o'rnini ko'k rangga bo'yang.
 3. Harflarni qo'shib o'qiyamiz.
 4. Bo'g'in tuzish va uni o'qish.
 5. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. So'zlarning tagiga bo'g'in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so'zlardan gap tuzdirish.
- Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- ngharflar birikmasi nechta harfdan iborat?
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: G‘g‘ harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiga kiruvchi G‘g‘ harf-tovushi bilan tanishadilar;
- G‘ tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- G‘ tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh G‘ va kichik g‘ harflari G‘ tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, G‘ tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bolajonlar, bormisiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bolajonlar, bormisiz”

Tarbiyachi: Bolajonlar, barchangiz bormisiz
Mashg‘ulot uchun tayyormisiz.

Bolalar: Mana bizlar hamamiz,
Zukko o‘g‘il qizlarmiz.
Mashg‘ulotga tayyormiz

Tarbiyachi: Qani bolajonlar hammamiz o‘z joylarimizni egallab olamiz va bugungi mashg‘ulotimizni boshlaymiz.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda G‘ tovushi bor g‘oz rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi Y tovushini takrorlab

(g`-g`-g`-g`oz) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi. Tarbiyachi G‘ tovushini talaffuzini tushuntiradi. G‘undosh tovush. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda G‘ tovushini xo‘r bo‘lib aytadilar. G‘ tovushi undosh tovush ekanligi, G‘ tovushini cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmasligi tushuntiriladi.

Tarbiyalanuvchilar G‘ tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o`tkaziladi. G‘ tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng G‘ harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda K harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

G‘ harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga K kesma harfi yopishtiriladi.)

Harflarninguch xususiyati:yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

G‘oz

Besh barmoq bo‘lsa birga
O‘xshar xuddi g‘ozlarga,
G‘ozlar g‘ozni ko‘rganda,
Deyishadi g‘a-g‘a, siz qayga?

Tirsakni tik tutib, kaft barmoqlari to‘g‘ri burchak shaklida bukiladi. Ko‘rsatkich barmoq bosh barmoqqa tegib turadi. Barmoqlar jips yopishgan.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalgakatta bosma G‘ harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta G‘ harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga G‘ harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Qoqib qanotin,
qoqillaydi g‘oz.
G‘ bilan deydi,
G‘oq-g‘oq-g‘oq

Amaliy masq.

Tarbiyachi G‘ undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (g‘oz,g‘or, g‘al-la, bu-g‘u, bug‘-doy, bog‘-bon, qo‘-g‘ir-choq, bog‘, tog‘, yog‘) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda G‘ undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa G‘ harfini baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

1. G‘ harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
2. So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. G‘ harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.

- 3.Harflarni qo'shib o'qiyamiz.
 4. Bo'g'in tuzish va uni o'qish.
 5. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. So'z larning tagiga bo'g'in andozasini chizish.
 - 6. Tuzilgan so'zlardan gap tuzdirish.**
- Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- G' harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so'zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Zz harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi Zz harf-tovushi bilan tanishadilar;
- Z tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- Z tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rghanadilar;
- Bo'g' inlardan so'z tuzishga o'rghanadilar;
- do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

"Laylakvoy" media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho'plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh Z va kichik z harflari, Z tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, Z tovushi ishtirok etgan so'zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so'zlar yozilgan kartochkalar, so'zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, "Harflarni qo'shib o'qish" mavzusida plakat, bo'g'in andozali kartochkalar.

Mashg'ulot metodi: muzyorar mashqi "Hammamiz birga harakatlanamiz", analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta'limiy o'yinlar: "Harflarni qo'shib o'qiyamiz", "Zanjir", "Bo'g' inlardan so'z tuzing"

Mashg'ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: "Hammamiz birga harakatlanamiz"

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo'lib turib olishlarini so'raydi va bolalarga murojaat qilib "Hammamiz birga harakatlanamiz", - deydi.

Qo‘llarimiz belda.
Keyin esa yonda
Ko‘taramiz tepaga
Keyin esa yelkaga
Qo‘llarimiz ko‘p-ko‘p
Oyoqlarimiz to‘p-to‘p
Quyon bo‘lib sakraymiz
Mashg‘ulotni boshlaymiz.
Bolalar joylariga o‘tiradilar.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda Z tovushi bor zanjir rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi Z tovushini takrorlab (z-z-z-zan-jir) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Tarbiyachi Z tovushini talaffuzini tushuntirib beradi,

Tarbiyachiga eslatma.

Ztovushini talaffuzidalablar kulgu holatida, tishlar ko‘rinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlar yoki alveolalar bilan tirqish hosil qiladi, til kuragining yon qirralari yon tishlarga zinch tiralgan bo‘lib, faqat tilning o‘rta qismida ingichka tirqich qoladi, tilning o‘rtasidan sovuq havo oqimi o‘tadi, buni his etish uchun qo‘l kaftining orqa qisdaqiqai og‘iz oldiga olib borish kerak, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopadi va buning natijasida havo oqimi og‘izdan o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan, u tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga Z undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, Z tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan **Ztovushining** xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. Z tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so‘ng Z harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi. Bunda Z harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

Z harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga Z kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

“Qo‘ng‘izlar” va “Chivinlar” o‘yini

Tarbiyachi: bolalar hozir ikki guruhga bo‘linamiz. Birinchi guruh bolalari chivinlar bo‘ladilar, ikkinchi guruh bolalari qo‘ng‘izlar bo‘ladilar. Chivinlar mana bu yerda yashaydilar, qo‘ng‘izlar esa mana bu yerda yashaydilar. Qachon men “Chivinlar uchib ketishdi” deb aytsam, chivinlar xona bo‘ylab yugurib ketadilar va “zzz” deb aytadilar. Qachon men “Qo‘ng‘izlar uchib ketdilar” deb aytsam, qo‘ng‘izlar xona bo‘ylab yugurib ketadilar va “jjj” deb aytishadi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma Z harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta Z harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga Z harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Arqonda yo‘q,
Zanjirda bor.
Uzum so‘zi o‘rtasida,
Piyoz so‘zi oxirida.

Amaliy masq.

Tarbiyachi Z undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (zar, zina, zag’cha, zag’izgon, uzum, Zuh-ra, A-ziz,) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda Z undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa Zkesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.Z harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 - 2.So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. Z harfi o‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
 - 3.Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.
 4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
 5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.
- Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- Z harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Vv harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiга kiruvchi Vv harf-tovushi bilan tanishadilar;
- V tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;

- V tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasqli alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh V va kichik v harflari, V tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, V tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasqli kartochkalar, rasqli alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Erkalatib ayt”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Erkalatib ayt”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptok uloqtiradi va bolalarga so‘zlarni kichraytirish – erkalatish shaklida nomlashni taklif etadi. Varrak-varrakcha, velosiped-velosipedcha, vagon-vagoncha, qovoq-qavoqcha, narvon-narvoncha, qovun-qovuncha ...

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda V tovushi bor varrak rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nominini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi V tovushini takrorlab (v-v-v-var-rak) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi V tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Vtovushini talaffuzidapastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashganda orada o‘pkadan havo chiqib ketishi uchun tor bo‘shliq hosil bo‘ladi, yuqorigi lab yengil ko‘tariladi, yuqoridagi tish qirralari ko‘rinib turadi, pastki tish qirralarini pastki lab yopib turadi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi esa og‘iz orqali o‘tadi, tovush boyamlari birikkan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga V undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, Vtovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan Vtovushining xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. V tovushli so‘zlar o‘ylab topiladi. Shundan so‘ng V harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda V harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

V harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga V kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Tarbiyachining so‘zlari	Bolalar harakatlari
Uycha baland bo‘lsin desangiz, Uycha mahkam bo‘lsin desangiz. Mixlarni tekis qoqqin O‘nga to‘q-to‘q-to‘q, Chapga to‘q-to‘q-to‘q, Oldinga to‘q-to‘q-to‘q,	Bolalar chordana qurib o‘tiradilar Qo‘llarining kaftlari bilan tizzalariga urishadi; musht bilan tizzalariga urishadi; Ikki qo‘l mushti bir-biriga urladi; O‘ng qo‘l mushti bilan o‘ng tarafga yerga uradilar; So‘ng chap tarafga Ikki qo‘l mushti bilan oldilarida «mix qoqishadi»

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma V harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta V harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga V harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Rim sonlari ichidan
Beshinchi joyni olar,
“Vaqt”, “varrak” so‘zlari
“V” harfidan boshlanar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi V undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (varrak, velosiped, vagon, vanna, qovoq, narvon, lavlagi, qovun, olov, palov, yaylov) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda V undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa V harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishlash.

Topshiriqlar:

1. V harfini yozishni o'rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 2. So'zlarni bog'lnarga bo'ling. V harfi o'mini ko'k rangga bo'yang.
 3. Harflarni qo'shib o'qiyimiz.
 4. Bo'g'in tuzish va uni o'qish.
 5. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. So'zlarning tagiga bo'g'in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so'zlardan gap tuzdirish.
- Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- V harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so'zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Xx harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi Xx harf-tovushi bilan tanishadilar;
- X tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- X tovushini so'zning boshida, o'rtaida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo'shib o'qishga o'rganadilar;
- Bo'g'lnlardan so'z tuzishga o'rganadilar;
- do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

"Laylakvoy" media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh X va kichik x harflari, X tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, X tovushi ishtirok etgan so'zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so'zlar yozilgan kartochkalar, so'zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, "Harflarni qo'shib o'qish" mavzusida plakat, bo'g'in andozali kartochkalar.

Mashg'ulot metodi: muzyorar mashqi "Hammamiz birga harakatlanamiz", analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta'limiy o'yinlar: "Harflarni qo'shib o'qiyimiz", "Zanjir", "Bo'g'lnlardan so'z tuzing"

Mashg'ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: "Hammamiz birga harakatlanamiz"

Bolalar diqqatini jamlash maqsadida tarbiyachi bolalardan doira bo‘lib turib olishlarini so‘raydi va bolalarga murojaat qilib “Hammamiz birga harakatlanamiz”, - deydi.

Baliq bo‘lib suzamiz,
Qushlar bo‘lib uchamiz.
Chiroylı o‘tiramiz,
Mashg‘ulotni boshlaymiz.

Bolalar joylariga o‘tiradilar.

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda X tovushi bor xo‘roz rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi X tovushini takrorlab (x-x-x-xo‘-roz) so`zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

TarbiyachiX tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Xtovushini talaffuzidalablar bir oz ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo‘ladi, ammo birikmaydi, X tovushini unli “a”, “i”, “u” tovushlari bilan birikkan holda talaffuz etilganida, tilning uchi pastga tushgan va bir oz itarilagan, til kuragining orqa qismiyumshoq tanglayga yaqinlashgan bo‘lib, tor bo‘shliq hosil bo‘ladi va u bo‘shliq orqali havo o‘tadi X tovushi “ya”, “ye”, “yo”, “yu” unli tovushlar birikmasi bilan talaffuz etilganda, til uchi pastga tushgan bo‘lib, pastki kurak tishlar asosiga tegib turadi va bo‘shliq hosil qiladi. Bu bo‘shliq (tirqish) orqali o‘pkadan kelayotgan havo o‘tadi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgaan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi. Buning natijasida havo oqimi og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari ochiq, tovushjaranglamaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga X undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, X tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan **Xtovushining** xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. X tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng X harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda X harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

X harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga X kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

Quvnoq daqiqa

Tarbiyachi:Bolajonlar, endi hammamiz o‘rnimizdan turamiz va doira bo‘lib turib olamiz. Qo‘llarimizni isitamiz: unga piflaymiz: ”x-x-x”, kaftlarimizni bir- biriga ishqaymiz, tezlashtiramiz. Turgan joyimizda 5gacha sanab sakraymiz.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma X harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta X harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga X harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Tegirmamonning charxiga
“X”harfi o‘xshab ketar,
“H”yumshoqroq aytilsa
“X”-qattiqman, deb aytar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi X undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (xat, xo’-roz, xa-bar, pax-ta, tax-ta, gul-xan, Jiz-zax, shox) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda X undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa X harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

- 1.X harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 - 2.So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. X harfi o‘rmini ko‘k rangga bo‘yang.
 - 3.Harflarni qo’shib o‘qiymiz.
 4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
 5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.
- Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- X harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Ff harf-tovushi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- undosh harflar guruhiiga kiruvchi Ff harf-tovushi bilan tanishadilar;
- F tovushli so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;

- F tovushini so‘zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘shib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, sanoq cho`plari, rangli iplar, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, bosh F va kichik f harflari, F tovushi bor suratlar. Undosh tovush belgisi bor kubik, F tovushi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Erkalatib ayt”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘shib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Erkalatib ayt”

Bolalar aylana shaklida turadilar. Tarbiyachi har bir bolaga koptok uloqtiradi va bolalarga so‘zlarni kichraytirish – erkatalish shaklida nomlashni taklif etadi. Fanar-fanarcha, fil-filcha, qafas-qafascha, pufak-pufakcha ...

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda F tovushi bor Ful rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so‘zni aytadilar. Tarbiyachi F tovushini takrorlab (f-f-f-fil) so‘zini aytadi va qaysi tovushga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi.

Tarbiyachi F tovushini talaffuzini tushuntirib beradi.

Tarbiyachiga eslatma.

Ftovushini talaffuzidapastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashgach, o’rtasida tor bo‘shliq hosil bo‘ladi, shu tor bo‘shliqdan havo o‘tadi, bu vaqtda yuqorigi lab yengil ko‘tarilgan bo‘ladi, yuqoridagi tish qirralari ko‘rinib turadi, pastki tish qirralariesa pastki lab bilaaan bekitilgan bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘ladi, hamda burun yo‘llarini yopib turadi, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘i orqali o‘tadi, tovush boyamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga F undosh tovush ekani, undosh tovush unli tovush bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuntirib, F tovushining talaffuzini o‘rgatadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan *Ftovushining* xususiyatlari haqida savol-javob o`tkazadi. F tovushli so`zlar o`ylab topiladi. Shundan so`ng F harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko`rsatiladi. Bunda F harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e’tibor beriladi.

F harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (kitob maketiga F kesma harfi yopishtiriladi.) Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Quvnoq daqiqa

Shoxdor echki

Shoxdor echki kelmoqda,
Bolalarmi ko‘rmoqchi.
Kim ichmasa sutini,
Kim yemasa oshini,
Suzib oladi uni.

Qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i va jimgilog‘idan boshqalari bukilgan. Bu - "echki". "Suzib oladi uni" qatori aytilganda, ular bolaga qarab qimirlatiladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma F harfini doskada chizib ko`rsatib beradi. Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq cho`plaridan katta F harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga F harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Arqonda yo‘q,
Zanjirda bor.
Uzum so‘zi o‘rtasida,
Piyoz so‘zi oxirida.

Amaliy masq.

Tarbiyachi F undosh ishtirok etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (*fil, futbol, fasl, farzand, fanar, favvara*, qafas, oftob, daftar, pufak,) aytadi. Bolalar aytilgan so‘zdagi bo‘g‘inda F undosh tovush ishtirok etgan bo‘lsa F kesma harfni baland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. F harfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
2. So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. F harfi o‘mini ko‘k rangga bo‘yang.
3. Harflarni qo‘sib o‘qiymiz.
4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlarning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish. Fotima loydan fil yasadi
Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- F harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)
- Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: “” belgisi bilan tanishtirish.

Maqsad:

- “” belgisi bilan tanishadilar;
- “” belgisi bor so‘zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
- “” belgisi so‘zning o‘rtasida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
- harflarni qo‘sib o‘qishga o‘rganadilar;
- Bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga o‘rganadilar;
- do`stona bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, “” belgisi, “” belgisi bor suratlar. “” belgisi ishtirok etgan so‘zlarga mos rasmi kartochkalar, rasmi alifbo, so‘zlar yozilgan kartochkalar, so‘zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, “Harflarni qo‘sib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g‘in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “Bir-birimizga kulib boqamiz”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Harflarni qo‘sib o‘qiymiz”, “Zanjir”, “Bo‘g‘inlardan so‘z tuzing”

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Bir-birimizga kulib boqamiz”

Mashqning borishi: Tarbiyachi: hozir hammamiz doira bo‘lib turib olamiz. Hammamiz bir-birimizni qo‘llarimizni ushlab, bir-birimizga qarab kulib boqamiz. (Tarbiyachi bolalarga bir-biriga kulib boqishni ko‘rsatib beradi: har bir bolaga birma-bir kulib boqadi. Keyin har bir bola birma-bir tarbiyachi va bolalarga mehr bilan kulib boqadi).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa.

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda “” belgisibor sa’va rasmi ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so`zni aytadilar. Tarbiyachi “” belgisi **bor** (sa’va) so`zini aytadi va qaysi bog`inga to`xtalib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so`raydi.

Bugun siz “” belgisi bilan tanishasiz. Tarbiyachi endi men “” belgisi bor so‘zlarni talaffuz qilaman, siz ushbu so‘zlarni talaffuz etilishini kuzating.

“” belgisi qanday belgi?

Demak “” belgisi so‘zdagi tovushlarni ajratilib o‘qilishiga yordam beradi. “” belgisi talaffuzi o‘rgatiladi. “” belgisi bor so‘zlar (a’lo,ma’no, sa’va, va’da, Jur’at, sur’at, e’lon, A’zam, Ra’no, Tal’at) aytildi.

Quvnoq daqiqa

Gul

Atirgul edi g‘uncha,
Ochilibdi tong otguncha.

Ikkala qo‘l barmoq uchlari jipslantiriladi.

Kaftlar biroz bukilgan holatda. Bunda g‘uncha shakli ifodalanadi

Kaftlarning pastki qismi bir-biriga jipslashtiriladi, barmoqlar doira shaklida keng ochilgan va birozbukilgan.Bunda ochilib turgan atirgul hosil bo‘ladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalargakatta bosma “” belgisinidoskada chizib ko`rsatib beradi.
Tarbiyachi ko`rsatib bergen namunaga qarab bolalar ish daftarlariga yozadilar.

Amaliy masq.

Tarbiyachi “” belgisiniishtirot etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib (a’lo,ma’no, sa’va, va’da, Jur’at, sur’at, e’lon, A’zam, Ra’no, Tal’at) aytadi. Bolalar aytilan so‘zdagi bo‘g‘inda “” belgisiniishtirot etgan bo‘lsa “” belgisinibaland ko‘taradilar.

Ish daftari bilan ishslash.

Topshiriqlar:

1. “” belgisiniharfini yozishni o‘rganamiz. Namunaga qarab yozamiz.
 2. So‘zlarni bog‘inlarga bo‘ling. “” belgisinio‘rnini ko‘k rangga bo‘yang.
 3. Harflarni qo‘sib o‘qiyimiz.
 4. Bo‘g‘in tuzish va uni o‘qish.
 5. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish. So‘zlearning tagiga bo‘g‘in andozasini chizish.
 6. Tuzilgan so‘zlardan gap tuzdirish.
- Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg‘ulda sizga nimalar yoqdi?
- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?
- “” belgisi ishtirot etgan bir necha so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib aytib bering. - Qanday so‘zlarni tuzdik?
- Qanday gaplarni tuzdik?

Mavzu: Mustaqil o‘qish

Maqsad:

- tovush va harflar bo`yicha egallagan bilimlari mustahkamlanadi;
- So`z, bo`g`in, gap haqidagi tushunchalari mustahkamlanadi ;
- So`z va gaplarni o`qish malakalari rivojlanadi ;
- kitob oqishga qiziqishlari oshadi;
- mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, rasmlar, rasmi alifbo, kitob maketi, kesma harflar, ish daftari, rasmi kartochkalar, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar, “Harflarni qo‘shib o‘qish” mavzusida plakat, bo‘g`in andozali kartochkalar.

Mashg‘ulot metodi: muzyorar mashqi “ Suhbat”, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, ta’limiy o‘yinlar: “Teatrlashgan”, “So‘zni top”, “Bo‘g`inlardan so‘z tuz” o‘yini.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism: 3 -5 daqiqa

Muzyorar mashq: “Suhbat”

Bolajonlar men bugun mashg`ulotni boshlashdan oldin sizga bir xabarni aytib o`tmochiman. Bizning katta kitobimizga barcha harflarni topdik ularni o`rnini belgiladik ammo ng va ‘ belgisi bu yerda turmaymiz ketamiz deb hafa bo`lyaptilar. Kelin shu do`stlarimizga yordam beraylik. Ular o`rmonga ketib qolganlar. Joylariga olib kelamizmi?

II. Asosiy qism: 20 daqiqa

Xonani qo`g`irchoq teatri uchun mos qilib bezatilgan va bolalar sahna qarab o`tkaziladi.

Xonaga katta kitob maketi shaklidagi kitob qahramoni kirib keladi.

Boshlovchi: Kitobjon nega horg`in ko`rinasan?

Kitob: Men uzoq o`lka, harflar mamlakatidan keldim. Yurtingizdagи barcha siz kabi bolalarga bilim berib, ozroq toliqdim.

Boshlovchi: Unday bo`lsa sen damini olib tur biz esa senga qo`shiq aytib beramiz

Quvnoq daqiqa;

Qo`shiq : Bolalar sehrli dunyoqo`shig`ini kuylab raqsga tushadilar.

Kitob: men ancha dam oldim endi menga dono harflarimni topgani yordam bering. Tartib bilan saf tortgan 29 bahodir.

Shulardan “A” degani

Hammasiga komandir.

Hamma- alifbo.(ekranda harflar pala-partish joylarini topmoqchi bo‘ladilar)

Tarbiyachi: Ey to'xtanglar, bunday bo'lmaydi siz ertakdagi harflar singari o'z joyingizni bilmay qoldingiz. Keling sizni joylashtiraylik. Yo'q buning uchun ertakka qaytmasak bo'lmaydi.

"Bir bor ekan bir yo'q ekan qadim zamonda harflar mamlakati bo'lgan ekan"

'va ng : qo'shiq aytib sahnaga kirib keladilar.

- sen bilan qaysi so'z boshlanadi? Sen bilan-chi?

(**Ayiq** qo'lida savatda gullar bilan kirib keladi.)

- sizlar kimsizlar nima qilib yuribsiz?

'va ng: ayiq sen qayerga ketayapsan ?

Ayiq: men do'stlarim yoniga savatda gul olib ketayapman.

'va ng: ayiq ayt-chi sen qanday harf bilan boshlanasan?

Ayiq: "A" meni bosh harfim yana asal, archa, ari so'zlari ham "a"dan boshlanadi.

'va ng: ayiq unday bo'lsa qo'lingdagi harfni bizga ber, biz uni o'zimizga bosh harf qilib olamiz. "G" bilan baribir boshlanadigan so'z yo'q-ku.

Ayiq: ey, nima deyapsiz "G" bilan ko'p so'zlar boshlanadi masalan: gul, gilam, gilos.

'va ng: ey unda bizga tog'ri kelmaysan ketaver.

Ayiq orqasidan tulki keladi.

Tulki: sizlar kim? Qanday so'z bosh harfi?

'va ng: biz senchi qaysi harf bilan boshlanasan?

Tulki: men, toshbaqa "t" harifi bilan boshlanganidek men ham "t"harfi bilan boshlanaman.

'va ng: unday bo'lsa qo'lingdagi harfni bizga ber.

Tulki: yo'q ular ham sizga to'g'ri kelmaydi. Ular "O" va "U" harflari.Ular bilan olma, uzum so'zlari boshlanadi.

Bo'ri ular yoniga yetib keladi.

'va ng: bo'ri qo'lingdagi harfni bizga ber. Seni o'z harifing borku, yana harifingga o'hshab ketar ekan.

Bo'ri: ey, yo'q bu "P" harfi agar u bo'lmasa unda paxta, pilla, pomidor so'zlari qanday yoziladi. Men buni sizga bera olmayman.

Sher, qo'shiq aytib kiradi.

'va ng: qara mana bularda senga o'hshab ikkitadan harflari bor ekan, so'rasak bittasini berishar.

Sher, cheburashka: yo'q bunday qila olmaymiz, agar biz ajralsak unda handalakdagi "h" ga, sabzidagi "s"ga aylanib qolamiz. Unda sport salomatlik garovi degan mana bu bolalar xafa bo'ladilar.

Qarg'a: suhbatingizni eshitib qoldim.

'va ng: ha seni aqlli qush deyishadi. Aytchi sen bizga yordam bera olasanmi? Biz ham bosh harf bo'lishimiz mumkinmi?

Qarg'a: Eshiting sizga o'qiymen ma'ruza

Unda bor juda ko'p so'z-a.

Qarg'a: ana ko'rdingizmi har bir harfni o'z o'rni, joyi bor. Ularni almashib ham berib ham bo'lmaydi.

‘ va ng: (hafa bo‘lib) yur ketdik biz kerak emas ekanmiz.

Tarbiyachi: bolalar aytinchi ular bizga kerak emasmi?

Bolalar: agar “” belgisi bo‘lmasa unda sa’va qushi savaga, Ra’no qiz esa ma’nosiz ranoga.

Agar ng bo‘lmasa tong ton, rang ran, chang chan bo‘lib ma’nosini yo‘qotadi.

Hamma- bizga juda keraksiz,

Gar bo‘lmasangiz

To‘liq bo‘lmas ALIFBOMIZ.

Ekranda harflar alifbo tartibida turib oladilar.

‘ va ng:rahmat sizga bolajonlar biz ham hursand bo‘ldik endi joyimizga borib turib olamiz.

Kitob: rahmat sizga bolajonlar menga harflarimni topishga yordam berdingiz

III.Yakuniy qism:

Bolalar sizga ertak yoqtimi?

Qanday xulosa chiqardingiz?

Bugungi mashg‘ulotimiz sizga nimasi bilan yoqdi?

GLOSSARIY

Nutq -tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. N. deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Tovush

Mundarija

t/r	Mavzu	bet
1.	Qo‘llanmadan foydalanishga tavsiyalar.	3
2.	Mashg‘ulot ishlanmalari.	10
3.	Nutq va gap.	11
4.	So‘z va bo`g`in.	13
5.	Tovush va harf.	14
6.	Bosh “A” va kichik “a” harflari bilan tanishtirish.	16
7.	Bosh “O” va kichik “o” harflari bilan tanishtirish.	19
8.	“U” tovushi, bosh “U” va kichik “u” harflari bilan tanishtirish.	22
9.	“I” tovushi va bosh “I” va kichik “i” harflari bilan tanishtirish.	24
10.	“N” tovushini talaffuz qilish.	28
11.	“T” tovushi va bosh “T” va kichik “t” harflari bilan tanishtirish.	32
12.	“S” tovushi va bosh va kichik “Ss” harflari bilan tanishtirish.	36
13.	“M” tovushi va bosh “M” va kichik “m” harflari bilan tanishtirish.	39
14.	“H” tovushi, bosh “H” va kichik “h” harflari bilan tanishtirish.	42
15.	“L” tovushi va bosh “L” va kichik “l” harflari bilan tanishtirish.	45
16.	“B” tovushi va bosh “B” va kichik “b” harflari bilan tanishtirish.	48
17.	“Y” tovushi va bosh “Y” va kichik “y” harflari bilan tanishtirish.	51
18.	“K” tovushi va bosh “K” va kichik “k” harflari bilan tanishtirish.	53
19.	“R” tovushi va bosh “R” va kichik “r” harflari bilan tanishtirish.	56
20.	“P” tovushi, bosh “P” va kichik “p” harflari bilan tanishtirish.	59
21.	“O” tovushi, bosh “O” va kichik “o” harflari bilan tanishtirish.	61
22.	“D” tovushi va bosh “D” va kichik “d” harflari bilan tanishtirish.	64
23.	“E” tovushi, bosh “E” va kichik “e” harflari bilan tanishtirish.	66
24.	“J” tovushi va bosh “J” va kichik “j” harflari bilan tanishtirish.	68

25.	“Q” tovushi, bosh “Q” va kichik “q” harflari bilan tanishtirish.	71
26.	“Sh” tovushi, bosh “Sh” va kichik “sh” harflar birikmalari bilan tanishtirish.	72
27.	“Ch” tovushi va bosh “Ch” va kichik “ch” harflari bilan tanishtirish.	75
28.	“G” tovushi, bosh “G” va kichik “g” harflari bilan tanishtirish.	78
29.	“ng” tovushi va “ng” harf birikmasi bilan tanishtirish.	80
30.	“G” tovushi va bosh “G” va kichik “g” harflari bilan tanishtirish.	82
31.	“Z” tovushi va bosh “Z” va kichik “z” harflari bilan tanishtirish.	85
32.	V” tovushi va bosh “V” va kichik “v” harflari bilan tanishtirish.	88
33.	“X” tovushi va bosh “X” va kichik “x” harflari bilan tanishtirish.	91
34.	“F” tovushi va bosh “F” va kichik “f” harflari bilan tanishtirish.	94
35.	” belgisi bilan tanishtirish	96
36.	Mustaqil o‘qish	98
37.	Mundarija	101